

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



BUXORO MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"KIMYOVIY TEXNOLOGIYA" KAFEDRASI

5320400 – “Kimyoviy texnologiya” (*yuqori molekulali
birikmalar*) yo`nalishida tahsil olayotgan talabalar
uchun “YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR KIMYOSI VA
FIZIKASI ” fanidan

MA'RUZALAR MATNI



BUXORO – 2019

Ma'ruzalar matni "OMKT" kafedrası yigilishida muhokama qilindi va o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etildi.

Bayonnoma № 1 26.08.2019 yil

Ma'ruzalar matni Bux MTI uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va bosmaga tavsiya etildi.

Bayonnoma №1 29.08.2019 yil

Muallif :

Sadirova S.N.

"OMKT" kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Mavlonov B.A.

"GKQIT" kafedrası dotsenti

Temirova M.I

"OMKT" kafedrası dotsenti

MA`RUZA №1

Mavzu: Reja: Yuqori molekulali birikmalar va ularni sanoatda tutgan o`rni.

1. Yuqori molekulali birikmalar tavsifi
2. Yuqori molekulali birikmalar turlari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov “Polimerlar fizikasi va ximiyasi”, T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, “O`zbekiston“, 2004, 416 b G.P.

YuMB (polimer)ning molekulasi yoki makromolekula (yunonchadan makros-katta, buyuk) yuzlab va minglab atomlardan tashkil topgan, ular o`zaro bo`sh valent bog`lar bilan bog`langandir.

Kelib chiqishi va olinish usuliga qarab YuMB tabiiy, sun`iy va sintetik polimerlarga bo`linadilar.

Tabiiy materiallardan ajratib olingan polimerlar tabiiy polimerlar deyiladi (tsellyuloza, kanifol, shellak).


Tabiiy polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalab olingan polimerlar tabiiy polimerlar deyiladi (tsellyuloza efirlari).

Quyi molekulyar birikmalardan sintetik usulda olingan polimerlar sintetik polimerlar deyiladi (PE, PS, PVX, PK, PA va x.k). Elementar zvenoning kimyoviy tuzilishi bo`yicha polimerlar organik, noorganik va elementoorganik polimerlarga bo`linadilar.

Organik polimerlar C-H bog`lar, funktsional guruxlar saqlab tarkibida azot, kislorod, galogen kabi atomlar bo`lishi mumkin.

Noorganik polimerlar C-H boglarni saqlamaydi.

Elementoorganik polimerlar organik va noorganik guruxlardan tashkil topadi.




R - organik radikal


Bog'larning qutblanganligiga qarab polimerlar qutbli va qutbsizlarga bulinadilar.

Asosiy zanjir atomlarining tabiatiga qarab polimerlar gomozanjirli va geterozanjirli bulinadilar.

Gomozanjirli polimerlarda asosiy zanjir bir xil atomlardan tashkil topgan bo'ladi.



Geterozanjirli polimerlarda asosiy zanjir ikki va undan ortiq atomlardan tashkil topgan bo'ladi.



Makromolekulasi bir xil qaytariluvchan zvenolardan tashkil topgan polimer GOMOPOLIMER deyiladi.

Makromolekulasi bir necha turdagi monomer zvenolaridan tashkil topgan polimerlar SOPOLIMERLAR deyiladi. Sopolimerlarning quyidagi turlari mavjud:

Statistik- A A V A V V A -

Tartibli ketma-ket- A V A V A V A -

Blok-sopolimerlar - A A A A V V V -

Payvand sopolimerlar - A A A A A A A -

V V
V V
V V
V V


A va V - qaytariluvchan zvenolarni shartli belgisi

Asosiy zanjir tuzilishiga qarab makromolekulalarni chizikli juft chizikli, tarmoqlangan va tursimon turlarini farqlanadi.

chizikli

juft chizikli

Narvon polimerlar




YuMB to'g'risida umumiy ma'lumotlar




Modda polimer xolatining xususiyalari

YuMB makromolekulasi bir xil atom guruxlaridan, ya'ni ELEMENTAR ZVENOLARdan, KAYTARILUVCHAN ZVENOLARdan tashkil topgan.

Masalan:



Polimerlar olish uchun kullaniladigan kuyi molekulyar birikma-lar MONOMERLAR deb ataladi.



Makromolekula zanjiriga kirgan elementar zvenolar soni POLIMERLANISH DARAJASI (n) deb ataladi. Polimerning MOLEKULYaR MASSASI

iuyidagiga teng

$M = m \cdot n$

m- zveno molekulyar massasi

n - polimerlanish darajasi

Molekulyar massasi 400-6000 oralikda etgan YuMB OLIGOMERLAR deb atadadi.

Makromolekulalarning eng muxim xususiyatlaridan biri ularning **zanjir tuzilish**ga ega ekanligidir, ya'ni molekula buylama o'lchamining ko'ndalang o'lchamidan juda katta ekanligidir. Makromolekulaning zanjir tuzilishi ularda kuyi molekulyar birikmalardan farqlovchi bir qator xossalar namoyon bulishiga sababdir.

Birinchidan, makromolekulaning zanjir tuzilishi ular urtasidagi boglanishning o'ta mustaxkamligini belgilaydi. Bu polimerlarga tola va plenka hosil qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, zanjir tuzilish makromolekulalarning boshqa muxim xossasi bo'lgan egiluvchanlik bilan birga fakat ularga xos bulgan xossa - elastiklikni, ya'ni kichik yuklanish ta'sirida katta qaytar deformatsiyalanish kobiliyatini namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, makromolekulaning zanjir tuzilishi va katta o'lchamlari YuMB va kuyi molekulyar birikmalarning erish jaraenlaridagi muxim farqlarning sababchilaridir. YuMBning erishdan oldin ularni bo'kishi kuzatiladi.

Polimerlar uchun ularni zanjir tuzilishi bilan boglik xolda makromolekulalarni kimeviy uzini tutishining bir kator xususiyatlari mavjuddir.

Bular jumlasiga tushanish, kooperativ jaraenlar, funktsional guruxlar reaksiey aktivligaga kushni zvenolarning ta'siri kabilar kiradi.

YuMB va kuyi molekulyar birikmalar atomlar orasidagi bog tabiati bir xil bulib, organik kimyoning deyarli barcha qonunlari YuMB ga xam ta'luklidir.


YuMB va kuyi molekulyar birikmalar o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardir:

	KMB	YuMB
Molekulyar massa	< 10 000	> 10 000
Sof toza modda	individual modda	noindividual modda (turli tumanlik xos)
Erish	bukishsiz amalga oshadi	odatda bukish bilan boradi
Uchuvchanlik	qisman uchuvchan	uchuvchan emas
Molekula shaklining ta'siri	deyarli yuk	katta

Statistik



Taroqsimon




yulduzsimon




to'rsimon

Parket



fazoviy



Asosiy terminologiya

Makromolekula -	uzaro kimeviy bog'lar bilan bog'langan atomlar guruxidan tashkil topgan molekula bo'lib, uning molekulyar massasi 10000 dan ortiq.
Polimerlar -	yukori molekulyar birikmalar (termin ko'proq sintetik polimerlarga nisbatan qo'llaniladi)
Elementar -	zvenolar urtasida bir turdagi bog'lar xosil kilish yo'li bilan makromolekula xosil kiluvchi mustakil birlikni tashkil qiluvchi atomlarning minimal guruhi
Polimerlanish darajasi-	makromolekuladagi elementar zvenolar soni
Polimergomo-logik kator	u tarkibi va tuzilishi bir xil bulgan, ammo molekulyar massasi bilan fark kiluvchi YuMB
Molekulyar massa buyicha turli-tumanlik	amalda istalgan YuMB polimergomologik katorni tashkil qiluvchi makromolekulalardan tashkil topgan bo'lib, mavjud uslublar bu aralashmani aloxida fraktsiyalarga ajratish imkonini bermaydi
Taksimlanish funksiyasi -	molekulyar massa buyicha polidisperslik kiymati- ning matematik ifodasi bulib, MM buyicha turli-tuman bulgan kgolimerning 1 g da ma'lum molekulyar massali moddaning mikdorini (massaviy taqsimot funksiyasi) yoki

	1 mol moddada berilgan polimerlanish darajali makromolekulalar sonini (sonli taksimot funksiyasini) kursatadi
O'rtacha MM -	molekulyar massa buyicha turli-tuman bulgan moddaning ayrim molekulalarining MM yigindisini massaga (urtacha vazniy MM) yoki makromolekulalarning umumiy soniga (urtacha sonli MM) nisbati.
Fraktsiyalash -	MM buyicha taxminan bir xil bulgan makromolekulyarni ajratib olishning eksperimental uslubi. Ravshanki, ayrim fraktsiyalarda MM buyicha polidisperslik kamayadi va taksimlanish yakkolrok bulib koladi. Fraktsiyalash taksimlanish egri chizigini kurishda xam qo'llaniladi
Polimeranalogik uzgarishlar	polimerlanish darajasini uzgartirmasdan YuMB olish
Chiziksimon, rotarmoklangan, to'rsimon YuMB -	zanjir konfiguratsiyasi xisobiga xosil bulgan mak- molekula tuzilishi
Konfiguratsiya -	makromolekulani tashkil kiluvchi atomlarni ma'lum fazoviy joylashishi bulib, u issiklik xarakati natijasida uzgarmaydi.
Konformatsiya -	Makromolekulalarda uni tashkil kilgan atomlar, atom guruxlari (xusuoan enaki tamokdagilari) urtasida-gi uzaro ta'sir va absolyut noldan farkli istalgan temperaturada issiqlik xarakati mavjuddir. Bu xar bir vakt davomida makromolekulaga muayan konformatsiya xosligini keltirib chikaradi. Xar bir konformatsiya fazoda atom, atom guruxlarining ma'lum bir tartibda joylashishi bilan

	xarakterlanadi. Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish issiklik ta'sirida yoki tashki kuchlar ta'sirida kimeviy boglar uzilmasdan σ -bog atrofida burilish, tebranish xisobiga amalga oshadi
Bukish -	kattik moddalarni uz xajmini va og'irligini oshirib, suyuqlik yutish kobilyatidir. YuMB ning bukish darajasi makromolekulaning shakliga va o'lchamiga bog'liq. Chiziksimon va tarmoklangan makromolekulalar cheksiz bukadi, tursimon polimerlar esa chekli bukadi.
Polimerlanish-	tuyinmagan monomerlardan kuyi molekulyar birikmalar ajralib chikmasdan radikal yoki ion zanjir reaksiyalari mexanizmi bilan boradigan YuMB sintez qilish jarayoni.
Sopolimerlanish-	turli monomerlarni bir biri bilan reaksiyaga kirishib YuMB xosil kiladigan polimerlanish jaraeni
Polikondensatsiyala nish-	bi- yoki polifunksional kuyi molekulyar birikmalardan YuMB sintez kilish jaraeni bu-lib, unda kuyi molekulyar birikmalar ajralib chikadi.

Tayanch suz va iboralar

Polimer, makromolekula, elementar zveno, monomer, polimerlanish darajasi, makromolekula xususiyatlari, yukori molekulyar birikmalar klassifikatsiyasi, asosiy zanjir tabyatiga kura, sopolimer, gomopoli-mer, asosiy zanjir tuzilishi buyicha.

Kaytarish uchun savollar

1. Makromolekula strukturasi kandy parametr lar xarakterlaydi?
2. Kaysi polimerlarni organik, noorganik, elementoorganik, gomopolimer va geterozanjirli polimerlar deyiladi?
3. Yukori molekulyar birikmalar kandy tasniflanadi?

4. Yukori molekulyar birikmaga ta'rif bering.
5. Yukori molekulyar birikmalarga oid kanday asosiy atamalarni bilasiz?
6. Yuqori molekulyar birikmalarni sanoatda va turmushda tutgan urni xasida gapirib bering.
7. Yuqori molekulyar birikmalarni quyi molekulyar birikmalardan afzallik va kamchiliklari.
8. Yuqori molekulyar birikmalarni o'ziga xos xususiyatlari.
9. Qanday polimerlarni sun'iy, sintetik va tabiiy polimerlar deyiladi? Misol keltiring.
10. Polimerlarni chiziqsimon, tarmoqlangan va to'rsimon turlariga ta'rif bering.

MA`RUZA №2

MAVZU: Yuqori molekulali birikmalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

Reja:

1. Yuqori molekulali birikmalar kimyosining asosiy tushunchalari
2. Yuqori molekulali birikmalarning xossalari
3. Yuqori molekulali birikmalarning nomlanishi va sinflarga ajratilishi

Foydalanilgan adabiyotlar


3. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov "Polimerlar fizikasi va ximiyasi", T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
4. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, "

1. Yuqori molekulari birikmalar kimyosining asosiy tushunchalari

Polimer soʻzi grekcha, “polimeros” soʻzidan olingan boʻlib, (poli- koʻp, meros – uzunlik), uning maʼnosi – molekulari juda uzun ximiyaviy moddalar demakdir. Odatda molekulyar ogʻirligi 5000 dan bir necha milliongacha boʻlgan moddalar yuqori molekulyar birikmalar, hisoblanadi. Molekulyar ogʻirligi 500 dan 5000 gacha boʻlgan moddalar xossalari jihatidan past molekulyar birikmalarga ham yuqori molekulyar birikmalarga ham oʻxshaganligi uchun rasman oligomerlar deb ataladi. Oddiy quyi molekulyar moddalarning nisbiy molekulyar massasi baʼzangina 300-400 lar atrofida boʻladi. Masalan, tabiiy kauchukning nisbiy massasi 70000 – 2500000 atrofida (suvning nisbiy massasi 18 ga teng)

Yuqori molekulyar birikma molekulasining massasi katta boʻlganligi uchun molekularni *makromolekulalar* deb ataladi. Koʻpchilik yuqori molekulyar birikmalarning makromolekulalari koʻp marta takrorlanadigan bir xil tarkibli atomlar gruppasi – oddiy boʻgʻinlar – zvenolardan tuzilgan boʻladi. Masalan: tabiiy kauchukning makromolekulalarini juda koʻp sondagi $-S_5N_8-$ tarkibli oddiy zvenolar tashqil etadi. Ular oʻzaro kimyoviy bogʻlar bilan birikib polimerlarni hosil qiladi

Yuqori molekulyar birikmalar molekulari oddiy boʻgʻinlardan tashqil topgan boʻlib, ular quyidagicha oʻzaro bogʻlangan boʻladi:




bu erda, A— takrorlanuvchi zveno; p — boʻgʻinlar soni boʻlib, polimerlanish darajasini ifodalaydi. Polimerlanish darajasi polimerning molekulyar massasi (M) va monomer molekula massasi (t) bilan oʻzaro: $R = M/t$ nisbatda bogʻlangan boʻladi. Bundan $M = R \cdot t$, yaʼni polimerning molekulyar massasi (M), uning oddiy


bo'g'in molekulyar massasi (t) ning polimerlanish darajasi (R) ga ko'paytmasiga teng.

Polimerlarni hosil qiladigan quyi molekulyar moddalarni monomerlar deyiladi (mono — bir demakdir). Agar polimer hosil bo'lishida monomer molekulasi to'liq o'zgarmagan holda makromolekula tarkibiga utsa, takrorlanuvchan zvenoni monomer bo'g'in deb ataladi.

V Bir xil tarkibli monomerlardan hosil bo'ladigan makromolekulani gomopolimerlar deyiladi. Polimer hosil bo'lishida turli xil monomerlar ishtirok etsa, turli tarkibli zvenolar ko'p marta takrorlansa, bunday polimerlarni sopolimerlar deyiladi. Masalan, tarkibi turlicha bo'lgan monomer zvenolarni A, V, S deb ifodalasaq ulardan hosil bo'lgan sopolimerlarning tuzili-shi quyidagicha bo'ladi:




birikmalar molekulasi oddiy bo'g'inlardan tashqil topgan bo'lib, ular quyidagicha o'zaro bog'langan bo'ladi:



bu erda, A— takrorlanuvchi zveno; p — bo'g'inlar soni bo'lib, polimerlanish darajasini ifodalaydi. Polimerlanish darajasi polimerning molekulyar massasi (M) va monomer molekula massasi (t) bilan o'zaro: $R = M/t$ nisbatda bog'langan bo'ladi. Bundan $M = R \cdot t$, ya'ni polimerning molekulyar massasi (M), uning oddiy bo'g'in molekulyar massasi (t) ning polimerlanish darajasi (R) ga ko'paytmasiga teng.


Polimerlarni hosil qiladigan quyi molekulyar moddalarni monomerlar deyiladi (mono — bir demakdir). Agar polimer hosil bo'lishida monomer molekulasi to'liq o'zgarmagan holda makromolekula tarkibiga utsa, takrorlanuvchan zvenoni monomer bo'g'in deb ataladi.

V Bir xil tarkibli monomerlardan hosil bo`ladigan makromolekulani gomopolimerlar deyiladi. Polimer hosil bo`lishida turli xil monomerlar ishtirok etsa, turli tarkibli zvenolar ko`p marta takrorlansa, bunday polimerlarni sopolimerlar deyiladi. Masalan, tarkibi turlicha bo`lgan monomer zvenolarni A, V, S deb ifodalasaq ulardan hosil bo`lgan sopolimerlarning tuzili-shi quyidagicha bo`ladi:



Sopolimer makromolekulasida ko`p marta qaytariladigan zvenolar joylanishining ketma-ketligi tartibsiz bo`lsa, bunday sopolimer statik sopolimer deb ataladi.

Ba`zi sopolimerlar makromolekulasida monomer zvenolari batartib joylashgan bo`ladi. Masalan:



bunday sopolimerlar blok sopolimerlar deyiladi.

Makromolekulani asosiy zanjiriga ikkinchi biror-bir monomer zvenolari quyidagicha bog`langan bo`lsa, bunday sopolimerlar-ga payvand sopolimerlar deyiladi.

Endi makromolekulada yonma-yon joylashgan monomer zvenolarini bir-biriga nisbatan turli fazoviy holatlarini (konfiguratsiyalarini) qarab chiqamiz. Shuni eslatib utish kerakki, bu holatlar «yaqin tartibli» tuzilish deb yuritiladi va uz navbati-da bu «yaqin tartibli» konfiguratsiyalar struktur va fazoviy izomerlarga bo`linadi.

2. Yuqori molekularli birikmalarning xossalari

Yuqori molekularli birikmalarni alohida sinf sifatida o'rganishning sababi ularning ba'zi hollarda ajoyib xossalarni namoyon etish bilan birgalikda, xalq xo'jaligining turli sohalarida keng miqyosida qo'llanishidir. Polimerlar kimyosi va sanoati xalq xo'jaligining barcha sohalariga yangi-yangi kimyoviy maxsulot-tola, plastmassa, sintetik kauchuk lok va bo'yoqlar etkazib beradi.

Polimerlar unchalik yuqori bo'lmagan haroratda, tarkibi buzilmasdan bir necha cho'zish, bo'kish qobiliyatiga ega. Ularning bu holati yuqori elastiklik xossasi deb ta'riflanib shinalar va boshqa rezina-texnik buyumlar ishlab chiqarish sanoatida foydalaniladi.

Metallar 500-1500 C haroratida eriydi. Polimerlar ulardan farqli unchalik yuqori bo'lmagan haroratda (150-300 C) oquvchan holatda o'tish qobiliyati tufayli ulardan buyum tayyorlashni ancha osonlashadi.

Polimerlar tola va parda (plenka) hosil qilish qobiliyatiga egakim, bunday qobiliyat boshqa hech qanday sinfdan uchramaydi. Polimerlarning bu qobiliyati, ulardan har xil tola va matolar, pardalar (plenka), sun'iy chirm olish imkonini beradi.

Polimerlar kichik zichlikka ya'ni 1- 2 g/sm.kub ega bo'lishi bilan birga, ularning solishtirma mustahkamligi yuqori bo'ladi. Ularning bunday xossasi kichik massali yuqori mustahkamlikka ega buyumlar tayyorlash imkonini beradi: masalan (avia va kemasozlikda metal o'rnida ishlatilishi, uchish masofasini uzaytiradi).

Polimerlar yuqori dielektrik xarakterga egadir. Shuning uchun ham ulardan elektrizolyatsiyalash materiallari tayyorlanadi.

oddiy moddalarning birlashtirilishi natijasida hosil qilinadi, shuning uchun ham ular sintetik polimerlar gruppasini tashkil etadi.

MA`RUZA №3

MAVZU: Yuqori molekularli birikmalar hosil bo'lish reaksiyalari.

Reja:

1. Polimerlanish jarayonlari

2. Polimerlanishning asosiy bosqichlari
3. Radikal polimerlanish jarayonlari

Foydalanilgan adabiyotlar

5. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov “Polimerlar fizikasi va ximiyasi”, T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
6. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, “O`zbekiston“, 2004, 416 b G.P.

Kirish kxismida yuxori molekulyar birikmalar haqida umumiy ma`lumot berilishi bilan bir qatorda, bu birikmalarning tuzilishi va ularning tabiatda uchrashi haqida muhim ma`lumot-lar berildi. Yuqori molekulyar birikmalarning olinish jarayonini chuqur urganish bilan hosil bulayotgan yuqori molekulyar birikmalarning xossalarini oldindan aniqlash mumkin. Molekulyar massani ortib borishi bilan makromolekulaning asosiy xossalarini keskin o`zgarishi bu jarayonni nazorat qilib borish imkonini yaratadi. Shu sababdan makromolekulaning tarkibi, polidispersligi, tuzilishi, uning molekulyar massasi polimerning asosiy xususiyatlarini belgilaydigan omillardir. Shuningdek makromolekula zanjirida monomer zvenosining ketma-ket joylanishi va uning fazoviy tuzilishi, zanjirda bir xil ximiyaviy xossali monomer zvenosining bo`lishligi va joylanish tartibi yuqorida keltirilgan xususiyatlarning asosini belgilaydi. Binobarin, hosil bulayotgan yoki sintez qilinayotgan yuqori molekulyar birikmalarning o`lchami, polimerning qanday uzunchoq yoki tarmoq-langani, molekula massasini katta yoki kichik bo`lishligi polimerlanish jarayonini urganish asosida yotadi. Binobarin, yuqori molekulyar birikmalar olishning asosiy usullari va ja-rayonlarini urganib turli tuzilishga ega bo`lgan hamda sanoat uchun kimmatli texnik xossalar namoyon xiladigan polimer mate-riallarini olish mumkin bo`ladi.


Yuqori molekulyar birikmalar monomerlardan asosan polimerlanish va polikondesatlanish reaksiyalari orkxali olinadi.

1. Polimerlanish jaraenlari

Molekulasida bir yoki bir necha xil aktiv funkcionalar bo`lgan quyi molekulyar moddalar — monomer molekullarining o`zaro birikib, govori molekulyar birikma hosil qilish jarayoniga polimerlanish deyiladi.

Polimerlanish jarayonida qatnashayotgan quyi molekulyar moddalarning soniga qarab — gomopolimerlanish (faqat bitta modda qatnashsa) va sopolimerlanish (ikki va undan ortiq modda qatnashsa) jarayoni sodir bo`ladi.


Polimerlanish jarayonida govori molekulyar birikmalardan boshqa qushimcha mahsulot hosil bo`lmaydi, chunki jarayon nihoya-sida hosil bo`lgan polimer tarkibi dastlabki moddaning tarkibiga mos kelishi kerak. Shu sababli polimerlanish jarayonini umumiy xolda quyidagicha ifodalash mumkin:



Polimerlanish jarayoniga kirisha oladigan quyi molekulyar moddalar — monomerlar bo`lib, ular o`zaro birikishidan polimerlar hosil bo`ladi.

Molekulasi tarkibida xushbor, uchlamchi bog` bilan bog`langan atomlarga ega bo`lgan, shuningdek yopiq halqali quyi molekulyar moddalar polimerlanish jarayoniga kirisha oladi.


Polimerlanish jarayoni asosan qushbog` yoki uchlamchi bog`larning uzilib monomer zvenolari orasida yangi birlamchi bog`lar hosil qilishi orqali amalga



oshishi mumkin. Masalan:

Shu bilan bir qatorda polimerlanish jarayonlari monomerlarning tabiatiga, aktivligiga va jarayon sharoitiga qarab molekulalararo taʼsir natijasida geterologik parchalanish, yaʼni ionlarga ajralish yoki gomolitik parchalanish, yaʼni aktiv erkin radikallar hosil boʻlishi natijasida polimerlanish jarayoni amalga oshadi.

Baʼzi xollarda polimerlanish jarayoni, zaryad uzatuvchi komplekslar (ZUK) taʼsirida sodir boʻladi. Polimerlanish natijasida monomer molekulasida tuzilishidagi toʻyinmagan R, toʻyingan birlamchi valent bogʻlarga aylanadi: dien, uglevodo-



rodlarda esa qoʻshbogʻlar kamayib boradi. Masalan:


Yuqorida qayd etilgan toʻyinmagan uglevodorodlar va ularning bir qator hosilalaridan polimerlanish tufayli sanoat uchun qimmatli xomashyo xisoblangan karbozanjirli yuqori molekulyar birikmalar olinadi. Bular orasida polietilen, polipropilen xar xil fazoviy tuzilishga ega boʻlgan polibutilen, polivinilxlorid, poliviniledenxlorid, polivinilftorid, turli xil kauchuklar, teflon, yuqori haroratga chidamli ftoroplastlar, poliakrilatlar, polivinilacetatlar, poliakrilonitril va ularning oʻzaro polimerlanishidan hosil boʻlgan sopolimerlar koʻplab ishlab chiqarilmoqda. Sintetik tola, sunʼiy charm va plastmassa-larning qator turlarini ishlab chiqarishda, asosan, etilen va uning hosilalari polimerlanadi.

Tarkibida ikki qoʻshbogʻ boʻlgan dien, uchlamchi bogʻi boʻlgan acetilen uglevodorodlarning polimerlari asosida kauchuklar, yuqori temperaturaga chidamli materiallar olinadi.


moddalar hosil bo`lishi bilan utadi. Agar oraliq mahsulotlar beqaror va umri qisqa bo`lsa, zanjir mexanizmga ega polimerlanish sodir bo`ladi. Monomerlarning bosqichli polimerlanishida hosil bulayotgan makromolekulaning molekulyar massasi kichik bo`ladi. Lekin zanjirli polimerlanishda hosil bo`lgan polimerlarning massasi katta, mingdan tortib bir necha un millionlar-A ni tashqil qiladi. Bu holda chiziqli makromolekulalar hosil bo`ladi. Zanjirli mexanizmida monomerlarning polimerlanish darajasi yoki molekulyar massasi jarayonning borish tezligiga qarab birdaniga eng yuqori ciymatiga erishadi. Bundan yuqori molekulyar moddalar o`rtacha molekulyar massasi va prli-disperslik darajasi, hosil bulayotgan mahsulotning asosiy xossa-lari polimerlanish jarayonining xarakteriga va uning kineti-kasiga bog`liq bo`ladi. Bosqichli jarayonni reaksiyaning istalgan vaqtida tuxtatish va hosil bo`lgan dimer, trimer, tetramer, oli-gomer va shu kabi birikmalarni sof holda ajratib olish mumkin.» / Bunda dastlabki monomerning o`zaro birikish, oraliq mahsulot-larning bir-biri bilan yoki monomer bilan reaksiyaga kirishish xususiyatlari deyarli bir xil bo`ladi, ikkita (yana yangi) monomer molekulasining o`zaro birikish reaksiyasi amalga oshishi uchun ta-laygina energiya talab qilinadi (chunki monomerlar aktivlan-ganidagina reaksiyaga kirisha oladi).

Polimerlanish jarayoni monomer molekulalarining o`zaro va oraliq mahsulotlar bilan birikishi uchun reaksiyaga kirishayot-gan molekuladan biror atomning tezda boshqa molekulaga kuchishi, ya`ni «migraciyasi» natijasida ham sodir bula oladi. Polimer-lanishning bu turiga bosqichli yoki migracion polimerlanish deyilib, jarayon monomer molekulasidagi aktiv atomning (yoki ionning) kuchishi natijasida ruy beradi. V"


Polimerlanishning bu turiga izobutklenning sul'fat kislotasi ta'sirida polimerlanishi misol bula oladi.




Olefinlar va ularning hosilalari orasida izobutilenga o'xshash bunday talabga javob beradigan monomerlar deyarli kam, shuning uchun polimerlanishning bu turi olefinlarda kam uchraydi. Biroq shunday qator monomerlar mavjudki, ular ma'lum sharoitda, migracion polimerlanadi, lekin dastlabki monomer zvenosining garkibi oxirgi mahsulot tarkibi va tuzilishi bilan ham farq-li ravishda o'zgaradi. Bunday polimerlanish jarayoni polimer makromolekulasining ichki qismida yangi bog'lanishlarning hosil bo'lishi bilan yoxud bir yoki bir necha atomlar guruxi zanjir buylab kuchishi yoki jarayon davomida quyi molekulyar moddalar ajralib chiqishi bilan boshqa jarayonlardan farq qiladi. Ba'zi xollarda dien uglevodorodlarning polimerlanish jarayonida, aniqrori zanjirning o'sishi paytida monomer halqasining ichki qismida yangi atomlararo bog'lanishlar hosil bo'lishi natijasi-da zanjir uchida yopiq halqali monomer qismlari hosil bo'ladi. Masalan:




Bunday jarayon paytida nafaqat 5—b a`zoli yopiq halqa hosil bo`lishi kuzatiladi. Ichki va molekulalararo polimerlanishda qushbog`lar hamda funkcionalar orqali ajratilgan tuzilishdagi monomerlarning polimerlanishi tufayli yopiq getero-halqali yuqori molekulyar moddalar hosil bo`lishi kuzatiladi. Bunday monomerlar gruppasiga divinilacetatlar, diallilefir-lar, diallilammoniyli tuzlari va xokazolar kiradi:



Ba`zi yopiq zanjirli to`yinmagan monomerlarning polimer lanishi natijasida ham zanjirning ichki qismida qushimcha yangi bog`lar hosil qilgan yopiq zanjirli polimerlar hosil bo`ladi. Chasalan: 1,4-dimetilciklogeksanning polimerlanishi natijasida




poli 1,4- dimetilciklogeksan, shuningdeq 1,5-ciklooktadien po-limerlanganda poli 1,5-ciklooktadien hosil bo`ladi.




Zanjirning rivojlanish davrida bir yoki bir necha atomlar grup-pasining kuchishi (yoki siljishi) bilan boradigan polimerlanish jarayonida ko`pincha vodorod atomining gidrid yoki proton holda kuchishi kuzatiladi. Masalan: molekulasi

2-mercapto-2-metilpropan kationli polimerlanganda:



tarmoqlangan tuzilish-ga ega bo`lgan a-olefinlar kationli polimerlanganda:



Xuddi shuningdeq ba`zi amidlarning polimerlanishi

yoki propilenning va boshqa monomerlarning katalizatorlar ish-tirokida polimerlanishida xam xuddi shu axvol kuzatiladi. Bulardan tashqari polimerlanish jarayonida N atomidan ogirroq atomlar yoki atomlar gruppasining migratsiyasi xam ba`zi hollarda kuzatiladi. Masalan, xlor ioni yoki metil gruppasi va boshqa atomlar gruppasining reaksiya natijasida ko`chishi kabi hollar haqida keyinroq izomerizatsion polimerlanish qismida batafsil tuxtalib utamiz.


2. Polimerlanishning asosiy bosqichlari

Polimerlanish jarayonini zanjirning o`shishiga olib keladigan aktiv markazning tabiatiga va zanjirning o`shish qonuniyatiga qarab bir-biridan quyidagicha ajratiladi.

1. Radikal polimerlanish jarayonini boshlovchi aktiv markazi sifatida, monomer molekulasi gromolitik parchalanishi natijasida hosil bo`lgan erkin radikallar muhim rol` uy-naydi.


2. Ionli polimerlanish jarayonini boshlovchi aktiv markaz sifatida qushbog`ning geterolitik parchalanishi natijasida hosil bo`ladigan ionlar yoki ion-radikallar asosiy omil hisoblanadi. Demak polimerlanish jarayonida o`sayotgan makromolekulalarni makroradikallar (radikal polimerlanish-da) makroionlar (ionli polimerlanishda) hosil qiladi. Shunday qilib, polimerlanish jarayoni uziga xos murakkab sistema bo`lib, boshqa zanjirli ximiyaviy jarayonlar kabi asosan uchta oddiy reaksiyalardan; aktiv markazning paydo bo`lishi, zanjirlarning o`shishi va zanjirlarning uzilishi kabi bosqichlardan iboratdir. Aktiv markazning hosil bo`lishi uchun katta energiya talab qilinadi. Shu sababdan bu bosqich kichik tezlik bilan boradi. Tashcaridan berilgan energiya (issiqlik yorug`lik ul`trabinaf-sha nur, radiatsion, rentgen va lazer nurlari xamda ximiyaviy energiya) yordamida monomer molekulasi ximiyaviy bog`ning uzilishi natijasida monomer aktivlanadi, ya`ni molekula biri-kish yoki o`shish xususiyatiga ega bo`ladigan aktiv markaz hosil qiladi:

Makromolekula zanjirning o`shishi kam miqdor energiya talab qil-sa, bu




jarayon juda katta tezlik bilan boradi.

Bu erda: M_1 — monomer molekulasini



Makromolekulyar zanjirning o'sish jarayoni, ya'ni polimer zanjirining quyidagidagi monomer bo'g'inining aktivligi yoqolguncha yoki monomer miqdoriniig hammasi sarflanib tugaguncha davom etishi mumkin.

3. Zanjirning uzilishi ko'p miqdordagi energiyani talab qilmasa polimerlanish nisbatan yuqori tezlikda davom etadi:



Zanjirning uzilish jarayonida makromolekula zanjirining o'sish tezligi, uning uzilish tezligidan qancha katta bo'lsa, hosil bulayotgan polimer makromolekulasining uzunligi shuncha katta bo'ladi. Demak makromolekulaning katta yoki kichikligi o'lchami va undan zanjirning uzunligi xaqida o'rtacha molekulyar massasi aynan shu ikkala jarayon tezliklarining nisbatiga borlikdir. Xozirgi paytda govor molekulyar moddalarning keng tarqalgan sintez qilish uslublaridan biri radikal polimerlanishdan iborat.

MA`RUZA №4

MAVZU: RADIKAL POLIMERLANISH


Reja:

1. Radikal polimerlanish jarayonlari xususiyatlari
2. Radikal polimerlanish jarayoni bosqichlari

Foydalanilgan adabiyotlar

7. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov “Polimerlar fizikasi va ximiyasi”, T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
8. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, “O`zbekiston“, 2004, 416 b G.P.

Radikal polimerlanish jarayonlari erkin radikallarning ta`siri natijasida aktiv markazlar hosil bo`lishi bilan boshlanadi. erkin radikallarda kimyoviy aktivligi yuqori bo`lgan juftlanmagan elektronning mavjudligi ularning turli xil tuzilishiga ega bo`lgan monomerlar bilan reaksiyaga kirishishiga moyillik yaratadi. Natijada monomer molekulasida o`shish imkoniyatiga ega bo`lgan aktiv markaz hosil bo`ladi. Bu jarayon umu-miy holda to`yinmagan organik birikmalar uchun quyidagicha ifodalanadi:





Bu erda:

Ra — juftlashmagan aktiv elektronga ega bo`lgan atom yoki atom-lar gruppasi (radikal).


Utkazilgan amaliy tajribalar tahlili shuni ko`rsatadiki, erkin radikallar reakcion muhitda polimerlanish jarayonining boshlanishidan to oxirigacha mavjud bo`ladi. Demak polimerlanish jarayonida erkin radikallarning miqdori makromolekula HOSIL bo`lishigacha orta boradi, bunda monomer molekulasi uzi-ning keyingi molekulasi bilan birikib, yangi erkin radikallar hosil qiladi. Zanjirning o`shish

jarayoni monomer molekulasi bilan erkin radikallar orasidagi juda ko'p elementar (oddiy) reaksiyalardan iborat bo'lib, polimerlanish davrida makromolekula zanjirining massasini ortishiga olib keladi. Natijada o'sayotgan erkin radikalli zanjirning monomer molekulasi bilan tuq-nashishi va birikishi natijasida makromolekulaning uzunligi tobora orta boradi. O'sayotgan radikal bilan monomerlarning uza-ro ta'sir reaksiyasi natijasida monomer molekulasi tarkibi-dagi qushbog'ning 1 bog'i uzilib, birlamchi, st-bog'ga aylanib, tuyi-nib boradi. Albatta vd/shbog'ning uzilishi natijasida, reaksiya issiqlik ajralib chqyshi bilan boradi. Ajralib chikdan issiq-lik mikdori ya- va a-bog'larning energiya farciga tengdir. Masalan:



yoki


Zanjirning uzilish jarayoni makroradikaldagi mavjud erkin radikallarning reakcion muhitdan yuqolishi bilan boradi. Re-akciyada zanjirning uzilishi ikkita o'sayotgan makroradikalla-rining o'zaro birikishi natijasida vujudga keladi. Bu esa radikallarning «o'zaro birikish» (rekombinaciya) reaksiyasi deyiladi. Rekombinaciya natijasida reakcion muhitdagi aktiv zarracha-larning soni kamayib,



2. Взаимодействие свободных радикалов с мономером

ular yuq bo'lib ketadi: zanjir uziladi. Masalan:


2. Vodород atomining ajralishi yoki zanjir buylab uzatilishi natijasida o'sayotgan zanjir oxirida qushbog' hosil bo'ladi va natijada zanjir uziladi. Bu reaksiyani disproporciyalanish reaksiyasi deb yuritiladi.



Polimerlanish jarayonida zanjirning uzatilishi muhim reak-ciyalardan biri hisoblanadi. Bu reaksiyaning borishi, shart-sha-roitlari haqida keyinroq batafsil tuxtalib utamiz.

Shunday qilib, radikal polimerlanish zanjirli ko'p bosqich-li ximiyaviy reaksiyalardan biri bo'lib, uning tezligiga reaksiya olib boriladigan reaktorning shakli, muhiti, dastlabki modda-larning tozaligi ta'sir etadi. Boshlangich davrning mavjudligi va reaksiyaning kinetik egri chizigini — z-ko'rinishli ekanligi, bu jarayon radikal jarayon ekanligini ko'rsatadi (6-rasm).

erkin radikalli polimerlanish jarayoni biror ta'sir natijasida radikallarga tez parchalanadigan moddalar yordamida tez-lashadi va bu moddalarni iniciatorlar — r




6-rasm. Xloroprenning polimerlanish egri chizigi (a), inhibitor ta'sirida strolning polimerlanish egri

e a k i i y a n i tez-lashtiruvchi moddalar deyiladi. Polimerlanish jarayoni paytida radnkallar bilan tez birikib, bu jarayonni sekin-lashtiradigan va uii tuxtadigan moddalarni ingibitorlar deyiladi. Demak polimerlanish jarayonida bu moddalardan

foydalangan xrla reaccion muxtgdagi erkin radikallar mikdorini oshirib yoki kamaytirib, polimerlanish jarayonini boiqarish mumkin. Iniciator ishtirokida polimer-lanishda kam energiya sarflanadi va jarayon oson kechadi. Turli moddalarning parcha-lanib, erkin radikallar hosil qilishi doimo modda molekulasiga ma`lum bir energiya berilishi tufayli vujudga keladi. Demak erkin radikallarning xosnl bo`lish jarayoni ham, uslubiga qarab, termiq fotoximiyaviy, rentgen, lazer va radiacion nurlar ta`sirida amalga oshadi.


Radikal polimerlanishni tezlashtirish uslublari

Issqlik ta`sirida radikal polimerlanish jarayoni tezla-shadi, bunday polimerlanish termik polimerlanish de-yilib, toza monomer molekulasidagi qushbog` issiklik ta`sirida uzilib erkin radikallar, ya`ni aktiv markaz hosil qiladi.




Masalan:

Hosil bo`lgan aktiv biradikallar monomer molekulalari bilan birikib usuvchi biradikalli zanjirga aylanadi:



O`sayotgan aktiv biradikalli zanjir navbatdagi monomer molekulalari bilan birikib makroradikallarga aylanadi. Termin polimerlanish jarayoni juda sekin boradi va harorat darajasi orta borishi bilan reaksiyaning tezligi ortadi. Ko`pchilik monomerlar termik polimerlanishga juda suet kirishadi. Masalan, vinilacetat, akrilonitril, vinilxlorid kislorod ishtirokisiz harorat ta`sirida polimerlanmaydn.

Stirol, akril kislota va uning hosilalari juda sekin polimerlanadi, harorat darajasi ortishi bilan polimerlanish jarayoni ancha tezlashadi. Monomerlarning yoruglik nuri taʼsirida polimerlanishi fotokimyaviy polimerlanish deyiladi. Bunda monomer molekulasiga maʼlum miqdorda kvant nur energiyasi yutilishi natijasida erkin radikal hosil boʻladi. Dastlab berilgan kvant energiya yutilishi bilan, monomer molekulasidagi qushbogʻning l-elektronlari galayonlanib aktiv energetik holatga utadi; ma-salan:




Bu erda:


p — Plank doimiyligi

V — nur tulqinlarining 1 sekunddagi tebranishlar soni (yaʼni chastotasi)

Aktivlangan monomerda ichki molekulyar oʻzaro taʼsir tufayli avval katta energiyali biradikal hosil boʻladi:



sungra, biradikal gomolitik parchalanib, ikkita monoradikalga ajraladi:



Takrorlash uchun savollar

1. Polimerlanish jarayonini taʼriflang
2. Qanday moddalar polimerlanish jarayoniga kirisha oladi?
3. Qoʻshbogʻning uzilishi natijasida boradigan polimerlanish jarayoni mexanizmini koʻrsating
4. Erkin radikallar hosil boʻlishi natijasida boradigan polimerlanish jarayoniga misol keltiring.

5. To'yinmagan uglevodorodlar va ularning hosilalaridan olinadigan karbozanjirli polimerlarni aytib o'ling.
6. Polimerlanish jarayoni bosqichlarini tushuntiring.
7. Polimerlanish jarayonida zanjirning uzilish sabablarini ayting.
8. Iniciatorlar va ingibitorlar qanday moddalar?
9. Aktiv markaz hosil qilish qanday amalga oshiriladi?
10. Radikal va ionli polimerlanish jarayonlari qanday farqlanadi?

Kationli polimerlanish

Reja:

- 1.Kationli polimerlanish
- 2.Anionli polimerlanish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov “Polimerlar fizikasi va ximiyasi”, T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, “O`zbekiston“, 2004,416 b G.P.

Monomerlarning ionli polimerlanish jarayoni katalizator-lar ishtirokida boradi. Ionli polimerlanish xam radikal polimerlanishga o`xshash zanjir reaksiyalardan iborat bo`lib, faqat o`sayotgan zanjir uchidagi radikal urnida kation yoki anion bo`ladi. O`sayotgan makromolekula uzining musbat yoki manfiy zaryadlarini zanjir buylab uzatishi orqali polimer zanjirining o`shishiga imkoniyat tugiladi. Shu sababdan o`sayotgan makroionning zanjir uchida hosil kilgan ionining zaryadiga qarab kationli va anionli polimerlanish sodir bo`ladi.

Shunday qilib, ionli iniciatorlar yoki jarayon tezligini ionlar yordamida tezlashtiruvchi moddalar ishtirokida sodir bu-ladigan polimerlanish jarayoni ionli polimerlanish deyiladi.

Organik modda molekulasi tarkibidagi uglerod atomining .zaryadlangan zarracha — ion holida mavjud bo`lishini Val`den 1903, Tang 1921 yillarda ba`zi organik moddalarning eritmalarini elektr utkazuvchaklik xossalarini urganish natijasida aniqlagan edilar. Keyinchalik N. B`errum 1926 yilda ximiya faniga juft zaryadli ionlar tushunchasini kiritdi. Faynman naftalinning natriyli tuzining ePR spektrini urganib, organik anionlarning metall atomlari bilan ion jufti holida mavjud bo`lishini fizikaviy usullar yordamida isbotladi. Shunday qilib, fanda yuqori reakcion aktivlikka ega bo`lgan ionlar

ta'sirida yuqori molekulyar birikmalar olish usuli ishlab chiqildi va uning asosida ko'p mikdorda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan polimerlar ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek ionli polimerlanish jarayonida faqat vinil monomerleri asosidagina emas, balki tarkibida aldegid, nitril, oksid gruppalari bo'lgan monomerlar asosida ham yuqori molekulyar birikmalar olish mumkin bo'ldi.

Ionli polimerlanishning qulayliklaridan biri polimerlanish jarayonini nihoyatda past haroratda olib borish imkonini (-50 dan -130°S) beradi.

1. KATIONLI POLIMERLANISH

1877 yilda A. M. Butlerov izobutilenni sul'fat kislota ish-tirokida birinchi marta polimerlab, poliizobutilen hosil qildi. Demak kationli polimerlanish kuchli kislotalar va tez ionlar-ga ajraluvchi ionli tezlashtirgichlar (katalizatorlar) ishtirokida olib boriladi, bunday ionli tezlashtirgichlar elektronlar-nimg kuchli akseptorlari (yutuvchilari) hisoblanib, ximiyaviy jihatdan barqaror moddalar hisoblanadi. Ionli tezlashtirgichlar sifatida ko'pincha Fridel — Krafts katalizatorlari ishlatiladi, ularni polimerlanish jarayonidagi nisbiy aktivligi quyidagi tartibda o'zgarib boradi:




Kationli polimerlanish nazariy jihatdan birmuncha yaxshi urgakilgan bo'lib, uning tezligi polimerlanish muhitining dielektrik doimiyligiga, monomerlarning tuzilishiga va tabiati-ga bog'liq bo'ladi.


Kationli polimerlanishning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda harorat pasayishi bilan jarayonning tezligi ortib boradi.

Kationli polimerlanishda aktiv markazning hosil bo'lishi uglerod atomining bir elektronliyu yuqotib karboniy ioniga aylanishiga asoslangandir.

Katalizatorlar sifatida kuchli kislotalar ishlatilganda monomer molekulasining to'g'ridan-to'g'ri protonlanishi natija-sida karboniy ioni hosil bo'ladi:




Bunda hosil bo'lgan karboniyon monomer molekulasi bilan biri kib, zanjirning o'sishini boshlab beradi va uzining musbat zaryadit sunggi birikkan




monomer molekulasiga uzatadi.

Reaksiyadan katalizatorning ajralib chiqishi natijasida zanjir uziladi:




ba'zan monomerning aktivlanish energiyasini kamaytiruvchi moddalar sokatalizatorlar ishlatiladi. Protonga donor bo'lgan moddalar (suv, kislotalar) sokatalizatorlar deyiladi.

Masalan, izobutilen oddiy sharoitda va havosiz muxitda 5pS14 katalizator ta'sirida polimerlanmaydi. Nam havo ta'sirida esa tezda polimerlanadi. Bu sistemada ham xavo tarki-bidagi suv zarrachalari sokatalizatorlik vazifasini utaydi va u katalizator molekulasi bilan birikib reaksiyaga aktiv bo'lgan kompleks hosil qiladi.




Shuningdeq mineral kislotalar ta`sirida ham aktiv kompleks birikmalar hosil



bo`ladi:

Kation polimerlanish jarayonining mexanizmi quyidagi sxema orqali ifodalanadi.


1. Jarayonning boshlangich paytida katalizator va monomerdan hosil bo`lgan aktiv kompleks keyingi monomer molekulasiga bilan birikib, molekulada aktiv



markaz—karboniy kationni hosil qiladi:

3) Zanjirning uzilishi aktiv markazning monomer molekulasiga uzatilishi natijasida sodir bo`ladi.

Shunday qilib, kinetik zanjir shu tartibda davom etadi. Zanjirning uzilishi esa katalitik aktiv kompleksning ajralib chixishi natijasida sodir bo`lishi mumkin:



Keltirilgan polimerlanish jarayoni mexanizmining sxema-sidan ko`rinib turibdiki, kationli polimerlanish davrida mak-roion zanjirining oxirgi monomer xalqasidagi qushbog`ning elektron buluti bog` buylab, uglerod atomidan siljishi natijasida bu uglerod atomi musbat zaryadlangan karboniyonga ay-lanadi. Bunday karbokation, elektron zichligi ortiq bxlgan qushbog`ning SN2 — gruppasi bilan

oson birikadi va natijada monomer molekulari o`sayotgan polimer zanjirida kdt`iy tar-tib bilan «boshga — dum» holida birikib boradi.

Kationli polimerlanishda katalizator bilan sokatalizator-ning mikdori stexiometrik nisbatda bo`lganda polimerlanish tezligi ortib, hosil bulayotgan polimerning molekulyar massa-sining kamayishiga olib keladi. Bundan tashkdri sokataliza-torning aktivligi muxdtning xarakteriga bog`liq bo`ladi. Masa-lan, xlorid kislota qutbli erituvchilar muhitida polimerla-nishni tezlashtirib yuboradi. Natijada makromolekula zanjiri yuqorida keltirilgan qonuniyat asosida usib boradi.

Zanjirning uzilishi monomolekulyar mexanizm qonuiiyatlari asosida boradi (va bu holat amaliy tajribalar yordamida isbotlangan).

Stirolning ZpSC ishtirokida polimerlanishi misolida ko`rganimiz kabi polimerlanish tezligi katalizatorning mikdoriga to`g`ri proporcional bo`ladi. O`rtacha polimerlanish darajasi esa katalizator mikdoriga bog`liq bo`lmay, monomer mikdoriga to`g`ri proporcionaldir.

Ionli polimerlanish jarayoni uchun sistemada sodir bo`lishi mumkin bo`lgan hamma elementar reaksiyalarni xdsobga olib, kation polimerlanishining aloxida boscichlari uchun jarayon-ning tezligini quyidagi tenglamalar orkdli ifodalash mumkin.

a) Aktiv markaz hosil bo`lishi tezligi $x = k_x [M] [Kat]$; bu erda, $[M]$ — monomer mikdori; $[Kat]$ — katalizator mikdori.

b) Zanjirning o`shishi $a_2 = k_2 [M] [M^+]$, bu erda, $[M^+]$ — makroi-on mikdori.

v) Zanjirning uzilishi $yu_3 = k_3 [M^+]$.

Stacionarlik tartibiga asosan $VI = `3$, u holda,

$$k_1 [M] [Kat] = k_3 [M^+] \text{ fa } [M^+] = \frac{k_1}{k_3} [M] [Kat].$$

Polimerlanish darajasi zanjirning o`shish va uzilish tezliklarining nisbatiga teng bo`ladi.

$$P = \frac{v_2}{v_3} = \frac{k_2 [M] [M^+]}{k_3 [M^+]} = \frac{k_2}{k_3} [M]$$

Демак,

$$P = \frac{k_2}{k_3} [M]$$

Polimerlanish darajasi monomer miqdoriga proporcional bo`lib, katalizatorning miqdoriga bog`liq emas.

Kationli polimerlanish jarayonining aktivlanish energiyasi radikalli polimerlanish jarayonidagiga kdraganda kichik qiymatga ega. Ba`zan uning kdymati 63 kJ/mol` ni tashqil etadi. Shuning uchun ham kdt`iy tartibli tarmokdanmagan yuqori molekulyar birikmalar kationli polimerlanish usuli bilan— 40—50°Sda olinadi.

Kationli polimerlanishning umumiy tezligi.

$$v_{\text{umumiy}} = v_1 P = k_1 [M] [\text{Kat}] \frac{k_2}{k_3} [M] = k_{\text{ym}} [\text{Kat}] [A]^2$$

monomer miqdoring o`zgarmasligini e`tiborga olib,

$$v_{\text{ym}} = k_{\text{ym}} [\text{Kat}]$$

Demak polimerlanish jarayonining tezligi katalizator miq-doriga proporcional bo`ladi.

2. ANIONLI POLIMERLANISH

To`yinmagan organik birikmalarning anionli polimerlani-shini ilmiy jihatdan sistematik urganishga asrimizning 20- yil-larida Cigler va S. V. Bebedev asos solishgan. Keyingi yillar-da anion polimerlanishining amaliyot va nazariyasini ishlab chikdan kimyogarlarning juda katta makta'blari Rossiyada (S. S. Medvedev va V. V. Komarovlarning) va chet ellarda (AQSh da M. Martin, Germaniyada Shul`c, Kern, Bayuoter, Konada) etishib chiqdi.

Aktiv markaz karboanion bilan monomerlarning birikib yuqori molekulyar birikmalar hosil qilish jarayoni — anion polimerlanish deb ataladi. Anion polimerlanishga ko'p sonli, turli xil tuzilish va tartibga hamda xossalarga ega bulgan monomerlar uchraydi. Bunday monomerlardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

a) To'yinmagan birikmalar $SN_2 = SX'U$

U — vodorod, alkil.

X—Kushbog'dagi elektron bulutning zichligini kamaytiruvchi urinbosarlar ($—NO_2$, $—SN$, $—SOON$, $—S_6N_5$, $—SN = SN_2$).


b) Tarkibida karbonil gruppasi bo'lgan birikmalar.

1. **Monomerlarni kotishmada** (massada) 200°C haroratda qizdirish yuli bilan polimerlanish olib boriladi. Jarayonda boshqa qo'shimcha reakciyalarni hamda parchalanish reakciyasini kamaytirish maqsadida polimerlanish jarayonini inert gazlar (argon, geliy) muhitida olib boriladi. Polikondensatlanish jarayonining oxirida hosil bo'lgan mahsulotni quyi molekulyar moddalardan tozalash maqsadida, reakciya mahsuloti vakuumda ma'lum vaqt oralig'ida ushlab turiladi. Shu usulda olingan polimerlar maydalanib qayta ishlash uchun tayyor qilib quyiladi.

2. Polikondensatlanish jarayonini monomerlar eritmasida olib boriladi, bu jarayon haroratni pasaytirishga imkon beradi. Buning uchun erituvchi sifatida, ikkala monomer eriydigan erituvchi tanlab olinadi.

3. Jarayonni bir-biri bilan aralashmaydigan ikkita faza chegarasida olib borib poliamidlar, poliefirlar, poliuretanlar olinadi. Ikkala faza chegarasida polimer plyonka holda hosil bo`ladi va doimo faza chegarasidan ajratib olinadi. Bu usul bilan olinadigan polimerlarning molekulyar massasi boshqa usullari bilan olingan polimerlar molekulyar massasidan doimo yuqori bo`ladi.

4. Monomerlarni qattiq holatda polikondensatlash usuli hozirgi paytgacha kam o`rganilgan. Shunga qaramasdan, bu usul bilan suyuqlantirish haroratiga etmasdan parchalanadigan monomerlardan polimerlar olishda qo`llaniladi.

Polikondensatlanish jarayonining texnologik usullaridan foydalanib amalda ishlab chiqarilayotgan va sanoatda keng tarqalgan polimerlardan, turli xil plastmassalar, kauchuklar, sintetik tolalar va elastomerlarni ko`rsatish mumkish.

Takrorlash uchun savollar

1. Polikondensatlanish jarayonlari deb nimaga aytiladi
2. Geteropolikondensatlanish gomopolikondensatlanishdan qanday farqlanadi
3. Migracion polimerlanish mohiyatini tushuntiring
4. Polikondensatlanish qanday texnologik usullar bilan amalga oshiriladi

Tayanch iboralar

geteropolikondensatlanish, gomopokondensatlanish, migracion polikondensatlanish, polikondensatlanish usullari, ekvivalent miqdor

Polimerlarnin kimyoviyreaksiyalari.

Umumiyholatlar.

Reja:

1. Polimeranologik o`zgarishlar
2. Makromolekulalarning ichida boradigan reaksiyalar
3. Makromolekulalararo reaksiyalar
4. Destrukciya reaksiyalari va ularning oldini olish usullari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov “Polimerlar fizikasi va ximiyasi”, T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, “O`zbekiston“, 2004, 416 b G.P.

1. Polimeranologik o`zgarishlar

Barcha polimer moddalar uz makromolekulalarning tuzili-shiga qarab, past molekulyar organik moddalarga xos bo`lgan xamma reaksiyalarga kirisha oladi. Bunday reaksiyalar natija-sida polimerlarning xossalari tubdan o`zgaradi, bu esa uz nav-batida bir tur polimerdan, xossalari butunlay boshqacha bo`lgan ikkinchi tur polimerlar hosil qilishga imkon beradi. Odatda organik moddalarga xos bo`lgan gidrogenlanish, xlordanish, sul`-folanish, nitrolanish, alkillanish va acillanish reaksiyalarini polimerlarda ham olib borganimizda xossalari butunlay o`zgar-gan polimerlar olinadi. Bu xodisa polimerlarning modifika-ciyanishi deyiladi. Polimerlarga xos bo`lgan bunday reaksiya-ni birinchi bo`lib 1833 yilda Brakkonni tabiiy polimer— sellyulozani nitrolab, organik erituvchilarda erishi, portlov-chanlik

xususiyati va bopqa qator xossalari jihatidan sellyulo-zadan farq qiluvchi nitrat sellyulozani olishni amalga oshirgan. Birinchi marta koncentrlangan nitrat kislotada paxtani eritish orqali nitrosellyuloza olingan.

Polimerlarga xos reakciyalar faqatgina ularni modifika-ciyalash uchun qullanilmasdan, balki polimerlarning tuzilishini urganish uchun ham ishlatiladi. Masalan, sirka anhidrid ta`si-rida sellyuloza makromolekulasini acetillash — sellyulozani modifikaciyalash reakciyasiga misol bula oladi. Birinchidan, bu reakciya yordamida sellyuloza makromolekulasidagi gidroqsil gruppalarining soni aniqlansa, ikkinchidan, hosil kxilingan ace-tilsellyulozadan sun`iy tola, plyonka va plastmassa buyumlar tayyorlanadi.

xPolimerlarga xos bo`lgan hamma reakciyalarni polimerlar-dagi ximiyaviy o`zgarishlar yoki makromolekulyar reakciyalar deyiladi. Yuqori molekulyar birikmalardagi ximiyaviy o`zgarishlar quyidagi turt turga ajratiladi:

Polimeranalogik o`zgarishlar. Bunday o`zgarish-larda makromolekulalar o`zidagi funkcionalar gruppasi hisobiga past molekulyar reagentlar bilan ximiyaviy reakciyaga kirishadi.

Makromolekulalarning funkcionalar gruppasi hisobiga yoki past molekulyar reagentlar ta`sirida makromolekula ichida boradigan reakciyalar.


Makromolekula l araro boradigan reakciyalar. Bu reakciyalar makromolekulaning funkcionalar gruppasi hisobiga yoki past molekulyar moddalar yordamida borishi mumkin. Bu holatda makromolekulalar orasida kundalang ximiyaviy bog` hosil bo`lishi natijasida makromolekulalar tikxilib qoladi. Texnikada bunday reakciyalar vulqonlanish, oshlash va harorat ta`sirida qotish jarayonlari deyiladi.

Makromolekulalar zanjirining kamayishi bilan boradigan reakciyalar yoki boshqacha aytganda, destrukciya reakciyalar i. h

endi yuqorida qayd qilib utilgan makromolekulalarga xos turt tur reakciyalarni alohida-alohida kurib chiqamiz.

Polimeranalogik o`zgarishlar makromolekulaning yon tomoni-da joylashgan funkcionalar gruppalar tuzilishining o`zgarishi bilan boradi. Bunday reakciyalarda


past molekulyar moddalar-ning atomlari yoki atomlar gruppasi makromolekulalarning yoni-ga kelib utirishi yoki mavjud boʻlgan boshqa funkcionl gruppalar bilan urin almashinishi mumkin. Lekin polimeranologik oʻzgarishlar natijasida makromolekulaning asosiy zanjirining tuzilishida va shu zanjirning polimerlanish darajasida hech qanday oʻzgarish boʻlmaydi. Polimeranologik oʻzgarishlar yorda-mida monomer moddasi boʻlmagan polimerlarni ham sintez qi-lish mumkin. Buni yakdol misoli sifatida polivinilacetatni ishxoriy muxitda gidrolizlab polivinil spirt olish reaksiyasini koʻrsatish mumkin:




Monomer koʻrinishidagi vinil spirt mavjud boʻlmasa ham sanoat-da uning polimeri yucoridagi yul bilan hosil qilinadi. Odatda polimerlardagi ximiyaviy oʻzgarishlarni polimer eritmala-rida amalga oshirish maxsadga muvofikdir. Agar bunda polimer eritmasining konsentrაციyasi qancha kichik boʻlsa, shu polimer makromolekulasining reaksiyaga kirishuvchi reagentlar bilan taʼsirlashuvi osonlashadi va reaksiya mumkin qadar oxirigacha boradi. Baʼzi hollarda polimerlarni eritish imkoniyati boʻlmasa, reaksiyalar buktirilgan polimerlarda olib boriladi.

Albatta, bunda reaksiya tezligi eritmasidagi holatdan ancha. kichik boʻlib, reaksiyaga kirishuvchi reagentning polimerga dnf-fuziyalanish xususiyati bilan xarakterlanadi.

Agar biz yuqorida hosil qilingan polivinilspirtga sirka angidrid taʼsir ettirsaq yana polivinilacetatni hosil qilishi-miz mumkin:




yoki polivinil xloridga kumush acetat taʼsir ettirsaq bunda ham polivinilacetat hosil




boʻladi:

olingan polivinilacetatni oʻrtacha polimerlanish darajasi dastlabki polivinilacetatning polimerlanish Darajasiga teng boʻlib chiqadi. Polietilen makromolekulasini xlorlaganimizda uning strukturasi funksional gruppasi hosil boʻladi:

Polietilen makromolekulasiga xlor atomining kirishi polimerning kristallanish darajasini kamaytiradi, zichligini esa oshiradi. Polimerning




termomexanik xossalari ham oʻzgaradi. Agar xlorning polimerdagi miqdori 25—40% ga etsa, polietilen kauchuklarga xos boʻlgan xususiyatlarga ega boʻladi. Agar polietilenga bir vaqtning oʻzida sulfit anhidrid va gaz holidagi xlor taʼsir ettirsaq makromolekulaning strukturasi xlor hamda sulfoxlor gruppalarini kirishini kuzatishimiz mumkin:




Xlorsulfolangan polietilen gazlarni utkazmasligi, yuqori adgeziyaga ega boʻlishligi, shuningdek vulkanizatsiyaga uchrash xususiyati borligi bilan farqlanadi.

Sellyuloza nitrat va fosfat kislotalar aralashmasi bilan nitrolansa, hosil boʻlgan nitrosellyulozaning polimerlanish darajasi dastlabki polimernikidan farq qilmaydi. Bunda selluloza boʻgʻini tarkibidagi uchta gidroksid gruppining harakatchan vodorodlarining hammasi yoki sharoitga qarab bitta-ikkita-si nitrogruppa bilan



urin almashishi mumkin. Reaksiya natijasida makromolekula boʻgʻinida bitta, ikkita yoki uchta nitrogruppa boʻlgan selluloza hosil boʻladi.

Polimeranalogik oʻzgarishlarning oddiy reaksiyalaridan birini poliakril kislotada kuzatish mumkin. Masalan, poliakril kislotaga ishqor taʼsir ettirilsa, tuz hosil boʻladi. Agar shu tuzga kislota eritmasi qushilsa, qaytadan poliakril kislotaga aj-



ralib chiqadi, galoidalkillar taʼsir ettirilsa poliakril kislotaning murakkab efirlari hosil boʻladi:

Bunday reaksiyalar natijasida ham makromolekulalarning polimerlanish darajasi oʻzgarmasdan qoladi.


Polialdegidlar ham, past molekulyar aldegidlar kabi urin olish, birikish va qaytarilish reaksiyalariga oson kirishadi. Ma-salan', poliakrolein qaytarilganda poliallilspirt hosil qil-sa, gidroqsilamin bilan birikkanida esa oksim xosil boʻladi. Poliakroleinni gidrazin bilan reaksiyasi yana ham oson boradi; bunda akroleinning poligidrazoni hosil boʻladi. Reaksiyalar-ning sxemasi quyidagicha koʻrinishga ega:

Yuqorida keltirilgan har ikkala xrlatdagi polimerlarning gidrolizlanish reaksiyasida makromolekulalarning polimerlanish darajasi o`zgarmaydi.

Demak polimeranalogik o`zgarishlar yordamida polimer makromolekulalarning polimerlanish darajasini o`zgartirmagan Holda turli-tuman xossalarga ega bo`lgan polimerlar va sopoli-merlar sintez qilish mumkin.


2. MAKROMOLEKULALARNING ICHIDA BORADIGAN REAKCIYALAR

Makromolekulalarning ichida boradigan reaksiyalarda faqat shu makromolekulaning funkcional gruppalari yoki ma`lum atomlari ishtirok etishi mumkin. Buning natijasida makromolekulaning tuzilishini, ba`zi makromolekula tarkibining uzgarishini kuzatish mumkin. Lenin bunday jarayonlarda makromolekulalarning kuyi molekulyar reagentlar bilan birikishi kuza-tilmaydi; odatda bunday reaksiyalar yorurliq yuqori energiyali nurlar, issiqlik va ximiyaviy reagentlar (polimer bilan reak-ciyaga kirishmaydigan) ta`sirida boradi. Makromolekulalarning ichida boradigan o`zgarishlar bir necha turga bo`linadi. Bularga asosan makromolekulaning yonida joylashgan gruppalarning uz-aro ichki




o`zgarishlari, makromolekulaning asosiy zanjiridagi reaksiyalar, shuningdek makromolekulada ichki izomerlanishga olib keluvchi o`zgarishlarni ko`rsatib utish mumkin. endi bir nechta reaksiyalarni kurib chiqayliq Agar metakrilamidni poli-merlanish jarayonida harorat kutarilsa, ammiak ajralishi bilan polimerning strukturasi ciklik tuzilish hosil bo`ladi:

Polivinilxlorid makromolekulasida degidroxlorlash reaksiyasi natijasida yonma-yon joylashgan uglerod atomlarida ko'pgina kushborlar hosil bo'ladi.




Buning natijasida polimer asta-sekin qoramtir jigar rangga kiradi va xossalari yomonlashadi:

Polivinil spirtning degidratlanish reaksiyasi murakkab jara-yon bo'lib, bunda bir vaqtning o'zida polivinilen hamda yopiq halqali tuzilishga ega bo'lgan polimer




hosil bo'lishi mumkin:

Polimetakrilatlarda ham makromolekulaning yonidagi funktsional gruppalarda ichki qayta gruppalanish kuzatilishi mumkin. Masalan, uchlamchi butilmetakrilatni (430—440 K) piroliz qi-linganda polimetakril kislota hosil bo'ladi. Makromolekula-




ning ichki izomerlanish jarayoni esa izobutilenning ajralib chiqishi bilan boradi.

Ba`zi polimerlarni havosiz joyda qizdirganimizda ularning makromolekulasida yopiq halqali tuzilish hosil bo`ladi. Bu reaksiya akrilonitril



polimeri misolida quyidagicha boradi:


Polimetakrilonitril ham piroliz qilinganda yuqoridagiga ux-shash yopiq halqali tuzilish kelib chiqadi. Agar shu yopiq halqali tuzilishning hosil bo`lish jarayoni ma`lum miqdordagi kislorod ishtirokida olib borilsa, polimer tarkibida ko`p



mikdorda yonma-yon joylashgan kushbor hosil bo`ladi. Bunday kushbog`ga ega bo`lgan polimer turli rangli ko`rinishda bo`lib, issiqlikka ucha chidamlidir.

Hosil bo`lgan bu maxsulot «qora orlan» deb yuritiladi. U ochiq alangada 700—800°C da qisqa vaqt oralirida xossalarini uz-gartmaydi. Shuning uchun bu polimerlardan yuqori temperatura-larda foydalaniladi.

Makromolekulaning asosiy zanjirida bo`ladigan ichki izome-riyaga poliandroformal`degidanilinni kislotali muhitda polibenzilaminga aylanish



reakcijasini misol sifatida keltirish mumkin.

Demak makromolekulaning ichida boradigan reaksiyalar tu-fayli ba`zi hollarda ularning xossalari yaxshilansa, ba`zi lollarda esa polimerning fizikaviy-mexanikaviy xossalari yomonlashadi.


3. MAKROMOLEKULALARARO REAKSIYALAR

Makromolekulalararo reaksiyalar deganda, asosan makromo-lekulalarni kundalang bog'lar orxali bir-birlari bilan tiki-lish reaksiyalarini tushunmoq keraq Bunday reaksiyalar nati-jasida fazoviy (ya`ni tursimon tuzilishga ega bo`lgan) polimer-lar xhosil bo`ladi. Makromolekulalarning choklanishi tufayli ularning termodinamik hamda kinetik mustaqilligi yuqoladi. Shuning uchun bunday polimerlar issikushk ta`sirida suyuqlan-maydi, erituvchilarda esa erimaydi. Makromolekulalarda chok-lanish tufayli texnologik jihatdan xxar tomonlama qulay va yaxshi xossalar vujudga kelishi mumkin. Fikrimizni dalili si-fatida vulkanlanish reaksiyalarini qayd qilib utishimiz mumkin. Shu birgina vulkanlanish jarayonini urganish va uning il-miy natijalarini sanoat va texnikada tatbiq xilish katta-kat-ta ikd-isodiy samaradorlikka olib keladi. Demak makromolekulalararo boradigan reaksiyalarni urganish xam ilmiy, ham ama-liy axamiyatga ega.

Odatda tursimon polimerlar asosan ikki usul bilan olinadi.


B i r i n ch i usul, tayyor polimer makromolekulalarini chok-lovchi reagentlar ishtirokida tikish, shuningdek inicirlanish reaksiyalarini ruyobga chiqaruvchi omillar, radiacion nurlanti-rish, yuqori temperatura ta`sir ettirish bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi usul polifunkcional monomerlar yoki shunga o`xshash oligomerlar bizga aniq bo`lgan polimerlanish yoki polikonden-sაციalanish reaksiyalari bo`yicha choklanadi. Chiziqsimon tuzi-lishdagi makromolekulalarni ikki funkcional




gruppalari boʻlgan birikmalar bilan oʻzaro choklash sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin:


Tursimon polimerlar choklovchi reagentlar boʻlmaganda xham makromolekulaning reakciyaga kirish qobiliyatiga ega boʻlgan funkcionalar gruppalari xisobiga choklana oladi. Masalan, polivinil spirtni yucori temperaturada qizdirganimizda suv ajralishi bilan choklanish sodir boʻladi:



Polimerlarni (radiacion yoki fotoximiyaviy usulda) nurlantirganimizda erkin radikallar paydo boʻladi, bu radikallar oʻzaro birikkanida makromolekulararo choklar hosil boʻlishi mumkin. Polietilenni nurlantirganimizda — SN2— gruppalardan vodo-rodni ajratish hisobiga makroradikallar xhosil boʻladi:



Hosil boʻlgan makroradikallarning rekombinaciyalanishi nati-jasida kundalang ximiyaviy bogʻlar hosil boʻladi:




Agar bogʻlar nisbatan kam boʻlsa, polimerlarning xossalari rezinanikiga oʻxshash boʻladi, bogʻlar koʻpayib ketsa, ebonitsimon qattiq jism hosil boʻlib,

erituvchilarda mutlaqo bukmaydigan Holga keladi. Makromolekulalar choklanganida ularning mole-kulyar massasi keskin ortib ketadi. Odatda chiziqsimon makromolekulalarning maksimal molekulyar massasi 108 dan oshmaydi. Choklangan polimerlarda esa molekulyar massa shu polimer sintez kl!linayotgan idishning hajmiga bog'liq bo'ladi. Buni quyidagicha tushunish mumkin. Monomer molekulasining massasi 100 bo'lsa, polimerlanishni olib boruvchi idishning hajmi 1000 sm³ ga teng deb olinsa, u xolda tursimon tuzilishga ega bo'lgan polimerning molekulyar massasi 1027 ga teng bo'lishi kerak edi. Bu esa chiziqsimon polimerning molekulyar massasidan cheksiz katta demakdir. Amalda esa bunday bo'lmaydi. Chunki makromolekulalarning yaxlit bitta gigant ko'rinishida hosil bo'lishiga qarshi-lik ko'rsatuvchi kinetik va termodinamik omillar mavjud. Shuning uchun tursimon polimerlarda yaxlit yirik-yirik molekulyar (lekin cheksiz katta bo'lmagan) zarrachalar bo'lishi bilan bir qatorda, sistemada ajratib olish imkoniyati bo'lgan zol` zarra-chalari paydo bo'ladi. Shuni qayd qilib utish kerakki, choklangan polimerlarning morfologiyasi choklanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Agar makromolekulalar juda siyrak choklangan bo'lsa, ularning morfologiyasi chiziqsimon polimerlar morfologiyasidan deyarli farq qilmaydi. Siyrak choklangan polimerlarda chiziqsi-mon polimerlarga xos bo'lgan globulyar, sferolit, fibrilyar tu-zilishlar mavjud bo'lishi mumkin. Makromolekulalar «zich» choklangan bo'lsa faqat globula ko'rinishidagi struktura hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Odatda bunday polimerlar uchun fakxat amorf ko'rinish mavjuddir, chunki makromolekulalar — aro choklar zanjirning zich joylashishiga xalaqit beradi.

VULKANLANISH REAKCIYALARI

Kauchuk makromolekulalarining kimyoviy bog'lar orcali choklanish reaksiyalari — vulkanlanish deyiladi. Tabiiy kauchukni vulkanlash 1832 yilda Charlz Gudir tomonidan kashf etilgan. Vulkanlash natijasida kauchukning fizikaviy-mexani-kaviy xossalari keskin o'zgaradi. Kauchukni vulkanlash odatda oltingugurt bilan tezlashtiruvchilar va aktivatorlar ishtirokida olib boriladi. Tezlashtiruvchilar

sifatida ko`pincha, mer-kaptanlar, cianidlar va shunga o`xshash moddalar, aktivatorlar sifatida esa ko`p valentli metallarning oksidlari ishlatiladi.*' Oltinugurtning kauchuk makromolekulasi bilan o`zaro ta`sir-lanish mexanizmini kurib chiqayliq Kauchuk makromolekulasi-ning oltinugurt atomlari bilan choklanishi bu reaksiyaning asosidir. U quyidagi sxemaga binoan sodir bo`ladi:



HARORAT TA`SIRIDA POLIMERLARNI QOTIRISH

Harorat ta`sirida qotirish yoki oddiyroq qilib aytganda qattiqLashtirish deb polifunkcional monomerlar yoki oligomerlar-dan tursimon tuzilishdagi qattiq polimerlar xosil qilish jara-yoniga aytiladi. Bu jarayonda sodir bo`ladigan o`zgarishlar poli-merlanish yoki polikondensatlanish reaksiyalari konuniyatlari asosida boradi.Suyuq holatdagi monomer yoki oligomer moddasi-ning qattiq holatga utkazishdan maqsad, biror bir konstrukcion buyumga shakl berish va shu shaklni polimerlarning fazoviy tuzilishi holatida saqlab qolishdir.

Qotish mexanizmi oligomerlarning ximiyaviy tuzilishiga, qotiruvchi moddalarning tabiatiga, shuningdeq qotish jarayonini qaysi usulda olib borish sharoitiga bog`liq bo`ladi. Qotish jarayoni asosan ikki bosqichda boradi. Birinchi boskichda fazoviy tuzilish hosil bo`lishligi tufayli reakcion aralashma eruvchanligi va oquvchanligini yo`qotadi. Qotuvchi sistema eruvchanligini yo`qotib iviqsimon holga o`tgan vaqtini gel` h o s i l qilish nuqtasi deyiladi. Qotuvchi moddalar qushilgan vaqtdan boshlab, sistemani oquvchanlik va qayta ishlash imkoniyatini yuqotguncha o`tgan davrni aralashmaning yashash qobiliyati deyiladi. Odatda sistemaning yashash qobiliyati temperaturaga va qotiruvchi moddalarning mikdoriga bog`liq bo`ladi.


Aralashmaning qotish kinetikasi va krvushoqligining ortishi krtish jarayonini boshlangich holatdagi mexanizmiga bog`liq bo`ladi. agar qotish jarayoni


polimerlanish mexanizmi bo'yicha borsa, kotish jarayonini boshlanishi uzoq indukcion davrni talab qila-di. Bunda kotuvchi aralashmaning qovushokligi juda sekin uzga-radi. Qotish jarayoni polikondensatlanish mexanizmi asosida borsa, qotishning indukcion davri kuzatilmaydi. Aralashmaning qovushoqligi esa qotiruvchi moddalar qushilgan davrdan boshlab gel` hosil bulguncha keskin ortib boradi.

OQSIL MODDALARNI OShLASH

Oqsil moddalar makromolekulasining funkcionallik gruppalashi oshlovchi moddalar bilan o'zaro ta'sirlashib kundalang ximiyaviy bog'lar bilan birikishiga oshlash deyiladi. Oshlash jarayoni charm va mo'yna ishlab chiqarish sanoatida asosiy boskich hisoblanadi. Teri va muynalarni oshlash maxsus darslik adabiyotda ko'rib chiqiladi. Bu erda bu masalani polimerlar ximiyasi -fizikasi nuqtai nazaridan qarab chiqamiz. Asosan oqsillardan tarkib toptan terilarning oshlanishi — tabiiy poliamidlarni ximiyaviy reakciyaga uchratishdir. Bu reakciya natijasida choklangan polimer hosil bo'ladi. Choklanish terilarning asosini tashqil etgan oqsil modda kollagen makromolekulasi orasida boradi. Uning natijasida erimaydigan va kam bo'kadigan gidrofob va boshqa turli foydali mexanikaviy xossalarga ega bo'lgan charm a mo'yna hosil qilinadi.

Oqsillarni chumoli al`degid bilan oshlash reakciyasini sxematik ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:






Ko`p hollarda oshlovchi moddalar sifatida o`zgaruvchan valentlik-ka ega bo`lgan metall komplekslari ishlatiladi. Bu kompleks birikmalar kollagen makromolekulalari bilan ximiyaviy bog`la-nadi.

Odatda kollagen makromolekulasida ximiyaviy tabiati jiha-tidan turli ko`rinishdagi funkcionalar mavjuddir. Shu funkcionalar metall ionlar bilan kompleks hosil qi-lib choklanishi mumkin.

Bu reaksiyani quyidagi sxematik ko`rinishda ifodalash mumkin:



Kollagen oshlash mexanizmini urganish ancha murakkab jarayon-dir, chunki kollagen strukturasi uzi hozirga qadar tu-liq urganilgan emas. Metall komplekslari bilan oshlangan te-rilar ham uzlarining fizik-kimyoviy va fizik-mexanikaviy xos-salarini keskin o`zgarishi bilan oshlanmagan teridan tubdan farq kxiladi. Shunday qilib, muyna va terilarni oshlash jara-yonlari ham makromolekulalararo boradigan o`zgarishlarga kira-di. Bunday o`zgarishlar natijasida hosil bo`lgan charm va m;uy-nadan har xil buyum va detallar tayyorlanadigan yarim xomashyo-lar olinadi. endi makromolekulalarning molekulyar massasini kamayishi bilan boradigan reaksiyalarni kurayliq

4.POLIMERLARDA DESTRUKCIYA VA ULARNING OLDINI OLISH USULLARI

Polimer makromolekulalarida polimerlanish darajasining kamayishi bilan boradigan reaksiyalarni destruksiya reaksiyalari deyiladi. Polimerlardan foydalanish, ularni saqlash va qayta ishlashda, shuningdek ximiyaviy o'zgarishlarga uchratish vaqtida destruktiv jarayonlari sodir bo'ladi. Destruksiya natijasida polimerlarning ko'pgina fizik-ximiyaviy va mexanikaviy xossalari o'zgaradi (ya'ni yomonlashadi)

Bunga asosiy sabab destruksiya vaqtida polimer makromolekulasida boradigan parchalanish reaksiyalaridir. Demak destruktiv jara-yonlar ko'p x/ellarda maqsadga muvofiq kelmaydigan zararli oqibatlarga olib keladi. Bundan destruksiya jarayonlarining xammasi zararli deb xulosa chiqarish xato bulur edi. Ko'p lollarda tabiiy va sintetik polimerlardan destruksiya yordamida qimmatbah0 past molekulyar moddalar hosil qilish mumkin. Ma-salan, kraxmal va sellyulozani gidrolizlab glyukoza olinadi yoki tabiiy okosil kollagenin gidrolizlanganda medicina va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan xar xil aminokislotalar-ning aralashmalarini hosil qilishi mumkinxki biror bir polimerning strukturasini ur-ganish uchun ko'p hollarda uni destruksiyaga uchratish va analiz qilish foydadan xoli emas. Sintetik polimer polimetilmetakrilat destruksiyaga uchratilganda monomer metilmetakrilat olinadi. Demak destruksiya jarayonlari sharoitga qa-rab foydali yoki zararli bo'lishi mumkin. Destruksiya jarayonlari ikki qonuniyatga:—tasodifiy yoki depolimerlanish konuniyatlariga buysungan holda boradi. Depolimerlanish—polimerlanishning teskari jarayoni bo'lib, makromolekula tarkibidan monomer molekulasini ketma-ket ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalardir. Bu ikkinchi holatda polimerning molekulyar massasi tasodifiy qonuniyatga buysunuvchi holatdagiga nisbatan sekin o'zgaradi.

Destruksiya jarayonlari qanday tashqi ta'sir ostida borishligiga qarab bir nechta turga ajratiladi.

Destrukciya mexanik kuchlar ta'sirida borsa, bunga mexanik-destrukciyalanish, nur ta'sirida — fotodestrukciya, issiqlik ta'sirida — termodestruklanish, radiaciya ta'sirida — radiacion destrukciya, oksidlovchilar ishtirokida borsa — oksidlanish destrukciyasi; bakteriya va zambururlar ta'sirida borsa — biologik destrukciya deyiladi.

Geterozanjirli polimerlarning ximiyaviy destrukciyasi yaxshi urganilgan. Bunday polimerlarning ximiyaviy destrukciyasi zan-jirdagi uglerod-geteroatom orasidagi bog'dan boshlanadi. Agar destrukciya to'liq borsa, dastlabki monomer xam hosil bo'lishi mumkin. Bunday reaksiyalar, xuddi organik ximiyadagideq gidroliz, alkogoliz, acidoliz, ammonoliz deb ataladi.

I. XIMIYAVIY DESTRUKCIYALANISH JARAYONLARI

Polimerlarning ximiyaviy destrukciyasi, amalda katalizator-lar ishtirokida olib boriladi. Bunda muhit sifatida suv ishlatilsa, gidrolitik destrukciya yoki gidroliz deb ataladi. Gidroliz jarayonida uglerod-geteroatom bog'ining uzilgan joyiga suv molekulasi birikib oladi.

Agar destrukciya reaksiyalari spirt ishtirokida borsa, jara-yon alkogoliz, muxxit sifatida kislota ishlatilsa acidoliz deb ataladi. Bu jarayonlar ichida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgani gidroliz reaksiyasidir.


Gidroliz. Ko'p tarqalgan ximiyaviy destrukciya reaksiyalari bo'lib, jarayon vodorod yoki gidroqsil ionlari ishtirokida tez-lashadi. Shuning uchun xam gidroliz reaksiyalarida katalizator sifatida ko'pincha kislota va ishqorlar ishlatiladi.

Gidrolitik jarayon polimerdagi yon gruppalar, shuningdek asosiy zanjirdagi bog'lar hisobiga ketishi mumkin. Masalan, polivinilacetat va acetilsellyulozaning gidrolizida reaksiya faqat yon gruppalar hisobiga ketadi. Geterozanjirli polimer asosiy zanjirining gidrolitik destrukciyasida hosil bo'ladigan gruppalar polimerdagi dastlabki funkcionalar bilan farq qilmaydi. Makromolekulalar elementar bo'g'in-lari orasidagi bog'larning uzilishi natijasida hosil bo'lgan zanjir oxiridagi gruppalar sonini ximiyaviy usul bilan aniq topish mumkin. Karboksil gruppalarining

ko`payib borishiga qarab poliamidlarning destruklanish darajasini, al`degid gruppalarning ortib borishiga qarab polisaxaridlarning gidrolizlanish darajasini hisoblash qiyin emas

Molekulasida amid bog`lari bo`lgan polimerlar ham kislota va ishqorlar ishtirokida oson gidrolizlanadi. Bunda gidroliz maxsulotlari strukturasiida karboksil va amin gruppalar hosil bo`ladi.

Ma`lumki, oqsil moddalarining tarkibida amid (peptid) gruppalari mavjud bo`lib, bu gruppalar kislota, ishqor va fermentlar ta`sirida gidrolizlanadi. Buning



natijasida 22 xil «-aminokislota, jelatina va shunga o`xshash moddalar hosil bo`ladi.

OKSIDLANISH DESTРУKCIYASI

Barcha korbozanjirli va geterozanjirli polimerlar oksidlanish destrukciyasiga uchraydi. Oksidlanish destrukciyasining me-xanizmi ximiyaviy destrukciya mexanizmidan tubdan farq qilib, zanjir reaksiyalar qonuniyatiga buysunadi. Oksidlanish destrukciyasida polimer asosiy zanjirining uzilishi va oksidlanishi bilan bir kxatorda undagi funkcionalar ham oksidlanadi. Oksidlovchilar sifatida kislorod, ozon va shunga o`xshash boshqa oksidlovchi moddalar ishtirok etadi. Polimerlarda oksidlanish reaksiyasini boshqarish juda xiyin, chunki bunday reaksiyalar erkin radikalli zanjirsimon mexanizm bo`yicha boradi.

FIZIKAVII DESTРУKCIYA JARAYONLARI

Polimerlar faqat oksidlovchilar, kislotalar, ishqorlar ta`sirida emas, balki turli fizikaviy omillar ta`sirida ham parchalanishi mumkin. Asosan yorug`liq radiaciya, mexaniq issiq-lik va ul`tratovush kabi fizikaviy omillar polimerlarni parchalanishiga sabab bo`ladi. Ko`p hollarda polimerlarning olinishi, qayta iqlanishi va ulardan foydalanish jarayonlarida destrukciya boradi. Umuman aytganda fizikaviy destrukciya — kungilsiz dodisa, chunki buning oqibatida polimerlarning

dast-labki fizika-mexanikaviy xossalari yomonlashib, polimer buyum-larning tezda ishdan chiqishi va eskirishiga olib keladi.

Fizikaviy destruksiya mexanizmini har tomonlama mukammal urganish destruktiv jarayonlarning oldini olish, sintez sharoit-larini turri tanlash, polimerlarni qayta ishlash jarayonini il-miy asosda tashqil etish va ulardan to`g`ri foydalanish yulla-rini topishga imkon yaratadi. Polimerlarda boradigan fizikaviy destruksiya jarayonini uch bosqichda boruvchi zanjirli jarayon deb qarash mumkin. Birinchi bosqichda aktiv markazlar hosil bo`ladi, ikkinchi bosqichda zanjir usadi va uchinchi bosqichda uziladi. Natijada destruksiyanuvchi polimerlarda molekulyar massa kamayibgina xolmay, balki yangi bog`lar va yangi funkcionalar gruppalar hosil bo`ladi. Bu esa polimer moddasining rangini o`zgarishiga xam olib keladi.

Termik destruksiya

Polimerlardagi parchalanish reaksiyalari faqat issiqlik ta`sirida borsa, u hodisani termik destruksiya deyiladi. Polimerlardagi termik destruksiya juda keng tarqalgan hodisa bo`lib, zanjirli mexanizmga muvofiq sodir bo`ladi. Destruksiya natijasida polimerlarning molekulyar massasi kamayadi. Termodestruksiya bilan bir vaqtda degidrataciya, cikllanish va shun-ga o`xshash jarayonlarning sodir bo`lishi polimer tarkibida yangi funkcionalar gruppalar paydo bo`lishiga sabab bo`ladi. Barcha zanjirli reaksiyalar kabi termik destruksiya jarayoni osoy radikal hosil qiluvchi moddalar ishtirokida tezlashadi. erkin radikal akseptorlari ishtirokida esa sekinlashadi. Peroksid, o`zgaruv-chan valentlikka ega bo`lgan metall ionlari, azo va diazobirik-malar destruksiya jarayonini tezlashtiradi. Masalan, kauchukning suyuq eritmasi iniciator ishtirokida 100° gacha qizdirilsa, uning molekulyar massasi juda tez pasayadi. Koncentrlangan eritmalarda esa destruktiv jarayonlar bilan bir qatorda chok-lanish ham kuzatiladi.

Ba`zan termik destruksiya jarayoni monomer molekulalarini hosil bo`lishi bilan borishi mumkin. Bunda ajralib chiqayotgan monomerning mikdori polimer tuzilishiga bog`liq bo`ladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Polimerlarning kimyoviy o'zgarishlari turlarini ayting

2. Polimeranalogik o'zgarishlar qanday kechadi

3. Makromolekulalar ichida boradigan reaksiyalarga misol keltiring

4. Makromolekulalararo reaksiyalar natijasida qanday polimerlar hosil qilinadi

Tayanch iboralar Polimer analogik o'zgarishlar, makromolekulalararo reaksiyalar, makromolekula ichidagi reaksiyalar, destruksiya reaksiyalari, termik destruksiya, fizikaviy destruksiya

MA'RUZA 11

Mavzu: POLIMERLAR EGILUVCHANLIGI

Reja:


1. Makromolekulalar konformatsiyasi
2. Termodinamik egiluvchanlik

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A. Askarov, O.M. Yoriev, N. Yodgorov "Polimerlar fizikasi va ximiyasi", T., O`qituvchi, 1993 yil, 348 bet
2. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi, Toshkent, "O'zbekiston", 2004, 416 b G.P.

Polimerlarning fizik xossalari ularning kimviy tuzilishi bilan belgilanadi. Biroq fizik xossalari va kimyoviy tuzilish orasidagi bog'liqlik o'ta murakkabdir. Bu bog'liqlikni tushunish uchun polimerlarning egiluvchanligi termini kiritilgan bo'lib, ichki molekulyar issiqlik harakati yoki tashqi kuchlar ta'sirida makromolekulani o'z konformatsiyasini o'zgartirish qobiliyati polimerning egiluvchanligidir. Egiluvchanlik faqat polimerlarga xos bo'lib, ularning muhim xossasidir. Makromolekulalar konformatsiyasi zvenolarning asosiy zanjirning σ - boglari atrofida tormozlangan aylanishi natijasida o'zgaradi. Shunday kilib zanjir egiluvchanligi makromolekulalardagi σ - bog atrofidagi ichki aylanishning engilligi bilan belgilanadi. Zvenolarni -S-S- bog atrofida aylanishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

α - valent burchak



β - valent burchakni tuldiruvchi burchak

φ - ichki aylanish burchagi


1, 2,3,4,5,6 va punktir chiziq - suyultirilgan eritmalarda aylanish traektoriyasi;

1,6,7 va uzluksiz chiziq - qattiq agregat holatda

ilgarilanma-kaytma tebranish oblasti.

U_1 energiyali bir konformatsiyadan U_2 energiyali ikkinchi konformatsiyaga zvenosini φ burchakka burilish natijasida σ - bog atrofida aylanayotgan zvenoning

$U(\varphi)$ potentsial energiyaning o'zgarishi quyidagi ko'rinishga ega.



Aylanish ehtimolligi ikkala holatlarning energiyalarining farqi $U_1-U_2=\Delta U$ va potentsial to'siq U_0 qiymati bilan belgilanadi. Termodinamik va kinetik egiluvchanliklarni farqlashadi.

Termodinamik egiluvchanlik

Ichki issiklik harakati natijasida 1- konformatsiyadan 2- konformatsiyaga o'tish qobiliyati bilan xarakterlanadi. ΔU ning qiymatiga bog'liq.

Termodinamik egiluvchanlik quyidagi ko'rsatgichlar bilan baholanadi:

birlik parametri (σ_j)

$$\sigma_j = \frac{(\bar{z}^2)^{1/2}}{(\bar{z}_{jT3}^2)^{1/2}}$$

$(\bar{z}^2)^{1/2}$ - real zanjirning uchlari o'rtasidagi urtacha kvadrat masofa.

- erkin tuzilgan zanjirning uchlari o'rtasidagi o'rta kvadrat masofa.

$$(\bar{z}_{jT3}^2)^{1/2}$$

Bu kursatgich sigmentlari valent boglar atrofida aylanishadi, ularning deformatsiyaga uchramagan holatida qo'llaniladi. Bunda

nadmolekulyar strukturaga uzgarmas bo'ladi.

Termodinamik sigmentning uzunligi (A)

Bu n - sonli zvenoning shunday ketma-ketlashchani, u uzini $n+1$ zvenoga bogliq bo'lmagan holda tutadi. Butkul egiluvchan zanjir uchun A qaytariluvchi elementar zveno uzunligiga teng. Butkul biki zanjir uchun $A=1$ (1 - zanjirning gidrodinamik uzunligi).

Persistent uzunlik (a) ham egiluvchanligini xarakterlaydi. Odamda $a=A/2$.

Florining egiluvchanlik parametri (f_0) makromolekuladagi egiluvchan boglar miadorini xarakterlaydi. Bu parametr egiluvchanlikning miqdoriy kriteriysidir.

$f_0 > 0.63$ egiluvchan polimer

$f_0 < 0.63$ biki zanjirli polimer.

Termodinamik egiluvchanlik polimerning kimyoviy tuzilishiga bogliq. Dien qatorga mansub ($-\text{SN}_2-\text{SN}=\text{SN}-\text{SN}_2-$) polimerlar vinil polimerlardan ko'ra ko'proq egiluvchan buladilar. $-\text{Si}-\text{O}-$, $-\text{S}-\text{O}-$ kabi boglar saqllovchi zanjirlarning ham egiluvchanligi yuqori bo'ladi.

Vinil polimerlarda zanjirga qutbli o'rinbosarlarning kiritilishi ularning egiluvchanligini biroz kamaytiradi. Polimerlarda N-bog hosil kiluvchi guruxlar, o'rinbosarlarning bo'lishi aromatik guruxlarning bo'lishi egiluvchanlikni kamayishiga olib keladi.

Kinetik egiluvchanlik

Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish tezligini ko'rsatadi. Bu utishda potentsial to'siqni engib o'tish kerak bo'ladi. Kinetik egiluvchanlik potentsial to'siq qiymatidan molekulyar massadan, polimerlarning choklanish darajasidan va temperaturaga boglik.

Potentsial to'siq qo'shni zvenolardagi atom va atom guruxlarning o'zaro ta'siri bilan belgilanib o'rinbosarlarning kutbliligiga bog'liq. Potentsial to'siq qiymat kichik bo'lgan polimerlar yuqori kinetik egiluvchanlikka ega. Odatda polimer tarkibida gruppalarning bo'lishi, o'rinbosarlarning hajmini ortishi kinetik egiluvchanlikni kamaytiradi. Kinetik egiluvchanlik kinetik sigment qiymati bilan

baholanadi. Kinetik sigment deganda zanjirning kinetik egiluvchanligini namoen qila oladigan uzunligi tushuniladi.

Polimerning molekulyar massasi

Bu kursatgich potentsial tusiq balandligiga ta'sir qilmaydi. Ammo zanjir uzunligining o'sishi kinetik egiluvchanchanlikni ortishiga olib keladi.

Polimerning turlanish darajasi

To'rsimon struktura hosil bo'lishi va uning zichligining ortishi egiluvchanlikni kamaytiradi.

Temperatura

Temperatura ortishi bilan makromolekulaning kinetik energiyasi ortadi. Natijada potentsial tusikni oshib utish ehtimolliki ko'payadi, bu o'z navbatida kinetik egiluvchanligining ortishiga sabab buladi.

Aloxida makromolekula uchun qayd qilingan qonuniyatlar makromolekulalar to'plamidan tashkil topgan (kondensirovannoe sostoyanie) polimerlar uchun ham tadbiiq qilinishi mumkin. Bu holatdagi polimerlarning ksinetik egiluvchanligining o'lchami sifatida mexanik sigment namoyon bo'ladi. Mexanik sigment polimer molekulyar zanjirning shunday mingiyal qiymatiki, undan boshlab kinetik egiluvchanlik namoyon bo'ladi. Bir xil molekulyar massa qiymatida mexanik sigmentning kattaligi shishalanish va oquvchanlik temperaturasiga bog'lik.

T_{sh} - egiluvchanlik namoyon bo'lishning quyi temperatura chegarasidir;

T_0 - konformatsiya uzgarishining yuqori temperatura chegarasidir.

Qattiq agregat holatdagi polimerlarda kinetik egiluvchanlik ularning molekulyar massasiga bog'liq emas. Lekin polimerlarning molekulyar va

nadmolekulyar strukturasi bogliq. Amorf polimerlarning egiluvchanligi yuqori. Orientatsiyalanish kinetik egiluvchanlikning kamayishiga olib keladi.

Tayanch suz va iboralar

Egiluvchanlik, ichki aylanish, aylanaetgan zveno potentsial energiyasi, aylanish extimolliigi, termodinamik egiluvchanlik, kinetik egiluvchanlik, termodinamik egiluvchanlik baxolash, bikrluk parametri, termodinamik segment uzunligi, persistent uzunlik, Flori egiluvchanlik parametri, zanjir kimeviy tuzilishi termodinamik egiluvchanshshgiga ta'siri, kinetik egiluvchanlik, tasir qiluvchi omillar, potentsial tusiq, kinetik segment, polimer molekulyar massasi, polimer turlanish darajasi, temperatura, mexanik segment.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerning egiluvchanligi deganda nima tushunasiz? 2.3 anjir egiluvchanligi nima bilan belgilanadi?

Z. Oddiy bog' atrofida aylanaetgan zvenonng potentsial energiyasi qanday o'zgaradi?

4.3 anjir egiluvchanligini qanday turlarini farqlashadi?

5. Termodinamik egiluvchanlik nima?

6. Termodinamik egiluvchanlik qanday ko'rsatkichlar bilan baxolanadi?

7. Polimerning kimyoviy tuzilishining termodinamik egiluvchanlikka ta'siri qanday bo'ladi?

8. Kinetik egiluvchanlik nima?

9. Kinetik egiluvchanlik qanday omillarga bogliq?

10. Bikrluk parametri nima va u qanday ifodalanadi?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.

2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

MA`RUZA №12

MAVZU: POLIMERLARNING USTKURTMA (NADMOLEKULYAR)

STRUKTURASI

Moddaning asosiy xossalari molekularning strukturasi va tarkibigagina bog'lik bulmay, balki molekularning uzaro joylashi-shiga ham, ya'ni jismning strukturasi xam bog'likdir.

Molekulalarni uzaro turlicha taxlanishi natijasida yuzaga

kelgan trukturalar ustkurtma (nadmodekulyar) strukturalar deb ataladi.

Ustkurtma struktura elementlarini uzaro joylashishi, ulchamlarini makromolekula va monomer zvenolarining konfiguratsiyasiga va konformatsiyasiga, ayrim atomlar ulchamiga, struktura xosil bulish sharoitiga, uni davomiyligiga va tezligiga, xamda shu kabi boshka faktorlarga bog'lik. Ustkurtma struktura polimerlarni fizik xossalari, fizik-kimeviy jarayonlar tezligi va mexanizmini belgilab bergani uchun uni urganish aktual ahamiyatga ega. Ustkurtma strukturalarning turiga qarab kristall va amorf polimerlarni farklashadi.

Amorf polimerlarning ustkurtma strukturasi. Uzoq vakt amorf polimerlarga xaotik ravishdagi kalavalar majmui deb karalar edi. Ammo bu tassavurlar amorf polimerlar namoyon qilayotgan xossalarga mos tushmaydi. Amorf polimerlarda xam tartibli; joylashishni mavjud-ligini quyidagi faktorlar kursatadi:

1. BVir xil tarkibli amorf va kristall polimerlarni zichliklari bir-biridan kam farkanadilar. Agar amorf polimerlarda tartibli joylashgan makromolekulalar tuplami bulmasa uni zichligi kristall polimernikidan keskin fark qilishi kerak edi.

2. Amorf polimerlarda kristallanish tezligining yukoriligi. Agar amorf polimerlarda makromolekulalarning tartibli joylashishi bulmasa ularni kristallanish tezligi amalda kuzatilaetganidan juda kichik bulishi kerak edi.

3. Turli fizik-ximik uslublar erdamida (rentgen nurlarni va neytronlarni difraktsiyasi. elektron mikroskopiya va x.k.) amorf polimerlarda zvenolarning lokal tartibli joylashgan soxalari mav-judligi kursatildi. Bunda tartibli va notartibli soxalar urtasida keskin chegara bulmaydi.

Amorf polimerlar tuzilishining extimolligi mumkin bulgan modellaridan bittasi quyidagi ko'rinishga ega:



1 - domenlar; 2 - pomenlararo fazo; 3 - boglovchn zanjirlar

Domenlar bitta eki 1)ir nechta makromolekulalarni kup marta taxlanib o'zaro parallel joylashgan uchastkalaridan tashkil topadi.

Domenlarni tartiblilik darajasi, o'lchami, soni va o'uzaro joylashishi polimerii sovitish sharoitiga bog'liq. Domenlar zarodish xosil ki-luvchilik vazifasini bajarishi mumkin va amorf strukturadan kristall strukturaga utish tipidagi strukturadir. Domenlar urtasida domenlararo amorf uchastkalar (2) mavjuddir. Ayrim makromolekulalar bir necha domenlar xosil kilishda ishtirok etib, ularni boglovchi (utuvchi) (3) zanjirlar deyishadi.

Amorf polimerlarning boshka modeli bo'yicha ularda klasterlar mavjuddir. Klasterlar makromolekulalar tartibli zich joylashgan soxalardir. Klaster zichligi polimerni urtacha zichligidan yuqori, ammo ularni zichligi va tartiblilik darajasi, kristallarnikidan kichik buladi. Klasterlarda zanjirlar morfologiyasi polimerii molekula darajasidagi strukturasi molekulyar massasi, fluktuatsion tur mavjudligi bilan belgilanadi.

Kristall polimerlarni ustkurtma strukturasi. Kristall polimerlar uchun strukturaviy elementlarni kup majmui xarakterli bulib, ular, ustkurtma strukturami

turli pogonalar qatlamini ifodalaydi. Kristall soxalarda makromolekulalar ma'lum bir kat'iy tartibda joylashadilar: makromolekula uxlari bir-biriga parallel, uni uchlari esa kristall yuzasida etadi. Kristallografii uxlarning bittasi makromolekula o'qi yo'nalishiga mos tushadi. Shakli buyicha kristallografik yacheykalar (uychalar) bir necha turga bulinadilar: kub, ortoromb, geksagonal va x.k. Uychaga butun makromolekula joylashmaydi, balki uni kichik bir kismi kiradi (bir necha kaytariluvchan zveno). Shu sababli polimerning elementar uychasi kuyi molekulyar massali shu kabi moddalarning uychasiga uxshaydi. Ammo polimer kristalli uziga xos xususiyatlarga xam ega. Xususan:

1. Polimerlarni kristalllarida kristall soxalar bilan birga amorf uchastkalar xam mavjud. Amorf uchastkalarga yakin masofadagi tartiblilik xosdir. Kristall fazalarda esa makromolekulalar eng tartibli va zich yaoylashganlar. Kristall fazaning zichligi polimerning urtacha zichligidan, xamda amorf fazaning zichligidan yukori buladi.

Polimer namunasidagi kriotalangan polimerii ulushi kristallik darajasi deyiladi. Xona temperaturasida aksariyat polimer larni kristallik darajasi 10-90% atrofida buladi. Masalan:

Polietilen

yukori zichlilik 60-90 Polikaproamid 30-60

kuyi zichlilik 40-60 Polietilevtereftalat 0-60

Polipropilen 40-70 Polivinilxlorid 0-40

Tsellyuloza 30-70 Polixloropren 10-30

Massa buyicha (K_m) va xajm buyicha (K_x) kristallik darajasi zichlikni bilgan xolda aniklanishi mumkin:

$$K_x = \frac{\rho - \rho_a}{\rho_{kp} - \rho_a} ; \quad K_m = \frac{\rho - \rho_a}{\rho_{kp} - \rho_a} \cdot \frac{\rho_{kp}}{\rho_a} = K_x \frac{\rho_{kp}}{\rho}$$

Kristallik darajasi makromolekulalar tuzilishining tartiblilikiga va kristallanish sharoitiga boglik. Orientatsiyalanish kristallik darajasini ortishiga olib

keladi. Polimerii olish sharoiti makromolekula tartiblilikini belgilashi xisobiga kristallik darajasini uzgartiradi.

2. Makromolekulalar egallagan xajmni umumiy xajmga nisbati - molekulyar joylatsish koeffitsienti polimer kristallarida quyi molekulyar birikmalar kristallarining shu kursatkichidan ancha kichik bulib, 0,65 - 0,73 chegarasida buladi.

3. Bitta makromolekula kup marta kristallografi uychaga kirganligi sababli kristall va amorf fazalar urtasida anik chegara bulmaydi.

4. Kristallar nuksonlar kupligi bilan xarakterlanadi, ya'ni kristallar ichida tugri uch o'lchamli tartibdan chetga chiqish bilan xarakterlanadi. Polimer kristallarning yukori nuksonli bulishining okibati sifatida ularni suyuklanish temperaturasi nazariy bashorat kilinganidan kam buladi.

5. Polimer kristallar uchun taxlangan struktura xosdir. Kristallanish jaraenida usayotgan kristall ma'lum uzunlikka etgach, u uzi uzining ustiga buklanib taxlana boshlaydi va yana kristall ichiga kirib taxt xosil kiladi. Taxt xosil kilib paytiga sistemani erkin energiyasini minimumi tugri keladi. Demakki, taxlangan strukturani xosil bulishi termodinamika nuktai nazaridan yutuk beradi. Bunday struktura kup polimer va oligomerlar uchun tajribada aniklangan. Taxlangan struktura xosil bulishida nuksonlar odatda taxtlar sirtiga sikib chikariladi.



6. Bitta polimerning uzi turli morfologiyali va nuksonli kristall strukturalar majmui bilan xarakterlanadi. Bunday turli-tumanlikning sababi makromolekulalarni molekulyar massasi bo'yicha polidispersligida, tartiblilik darajasida, konfiguratsiyasidadir. Bundan tashkari polimerlarni strukturasi kayti ishlash jarayonida uzgaradi va uni olib borish sharoitiga boglik.

Polimerlarning kristall strukturalarining eng keng tarkalgan turlari kuyidagilardir: kristallitlar, monokristallar, fibrillalar, sferolitlar.

Kristallit bu kristallografik uklari yagona orientatsiyalangan eng kichik kristall usmasidir. Makromolekula uzunligi kristallitning maksimal ulchamidan katta bulgani uchun u kup marta buklanib taxlangan konformatsiya xosil kiladi.

Monokristall odatda elementar uychalardan tashkil topib, kristallografik uchlarni yagona orientatsii bilan xarakterlanadi. Barcha monokristallar yuqori darajadagi tartib, ya'ni kusionlar soni kichikligi bilan ajralib turadi. Tuzilishi buyicha monokristallar uch turga bulinadilar: plastinkasimon, fibrillyar, kalavasimon.


Plastinkasimon monokristallar ko'pincha romb shaklidagi yupka plastinkalardan (kalinligi 10-26 nm, tomonlari 1 mkm gacha) tuzilgan bo'ladi. Shu sababli aksariyat xollarda plastinkasimon kristallarni lamellar (-shakl) deb atashadi.



Bunda s uk makromolekula uki bilan mos tushadi va lamel tekisligiga perpendikulyardir. Lamellarda makromolekula konformatsiyasi taxlangan bulib, makromolekulani 180° bukilishi yuli bilan xosil buladi. taxlanish jaraenida makromolekula kristalldan chiqqan joyiga kaytib kirishi mumkin, qaytib kirmasligi mumkin, ma'lum bir masofadan keyi kirishi mumkin yoki umuman kirmasdan erkin uch bulib kristall sirtida qolishi mukin. Tartibsizlikka olib keladigan holatlar kristallarda taxlanish tartibini buzishiga olib keladi. Shu sababli monokristallar eng mukammal kristall strukturalar bo'lishiga qaramay, ularda kristallik darajasi 100% bo'lmaydi. Bir qism molekulalar kristallga kirmay nukson uchastkalarini, yani amorf fazani tashkil kiladi. Chuzilgan zanjirlardan iborat monokristall polimerlardagi eng mukammal kristall strukturalardir. Lamellar monokristallarning birlamchi elementlari bulib, ular turli shakdtsagi morfologik strukturalarga jamlanishi mumkin: terrasasimon monokristallar, ichi bush piramidalar, yulduzsimon dendritlar.

Fibrillyar monokristallar tuzilishini kurib chikishdan oldin fibrilla tushunchasida to'xtab o'taylik. Bir-biriga nisbatan parallel joylashgan tugrlangan zanjirlardan xosil bulgan agregatlar (zanjirlar tuplami) Fibrilla deyiladi. Odatda

fibrilla uzunligining qiymati kundalang ulchamidan bir necha barobar katta buladi. Fibrillyar kristallar kalinligi 10-20 nm bulib, uzunligi esa bir kancha mikronlarga etadi. Fibrillyar kristallar mikrofibrillalardan tashkil topgan buladi. Mikrofibrillalar tugrlangan zanjirlardan yoki bukilib taxlangan konformatsiyali zanjirlardan tashkil topgan buladi (-shakl). -




Fibrillyar monokristall xosil kiluvchi polimerlarga misol bo'lib tsellyullozani kursatish mumkin. Bu polimerning aloxida mikrofibrillalari spiralga uralgan tasmani tashkil qiladi.

Tasmada esa makromolekulalar buklangan xolatda buladilar. Monokristallardagi mikrofibrillalar amorf uchastkalarni saklamaydi, deyarli nuksonsizdirlar.

Globullyar (Kalava) monokristallarda kristall turlarning tugunlari kalavasimon konformatsiyadagi makromolekulalardan tashkil topgan. Bunday kristallar ulchamlari bo'yicha yuqori bir jinsli bo'lgan biopolimerlar uchun xosdir.


Sferolitlar markazga nisbatan simmetriyaga ega bulgan polikristallik strukturalardir.



- 1 - сферолит маркази
- 2 - сферолит нурлари

Markazlardan sferolitlashi usishi boshlanib, usish bir xil orientatsiyali lamellarni birikish xnsobiga sodir buladi. Simmetrii strukturalarni usishi ikki eki uch yunalishda bulishi mumkin. Markazdan usib chikaetgan bu strukturalar nurlar

deyiladi. Monokristallardagi mikrofibrillalardan farkli sferolitlarni tashkil qilgan fibrillalar amorf va kristall uchastkalardan tashkil topib, ular utivchi zanjirlar bilan boglangan.



Sferolitlarni nuksonlilik darajasi monokristallarnidan yuqori bulib, ayrim polimerlar uchun 50-80% gacha boradi. Tuzilishining xususiyatlariga ko'ra sferolitlar radial va xalkasimon turlarga bo'linadi. Xalkasimon sferolitlarda fibrillalar xalka bo'lib joylashadi. Radial sferolitlarda esa amorf uchastkalar kushuv alomatini (maltiya kremtini) xosil kiladilar. Yukori kristallanish darajasida ayrim sferolitlar uz yuzalari bilan ta'sirlashb sferolit tasmalarini xosil kiladilar.

Shuni aytish kerakki, monokristallar suyultirilgan eritmalaridan kristallanganda xosil bulsa, sferolitlar kontsentrlangan eritmalar va polimer suyuqlanmalaridan xosil buladi.

Yukorida ko'rib o'tilgan barcha ustkurtna strukturalar issiklik xarakatining xal qiluvchi ta'sirida shakllanadi. Tashki deformatsiyalanish ta'sirida ustkurtna struktura o'zgaradi va polimer orientatsiyalangan xolatga utadi.

Tayanch suz va iboralar

Polimerning fizik strukturasi, ustkurtna (nadmoleku-lyar) struktura, amorf polimerlar ustkurtna strukturasini, amorf polimerlar makromolekulalr joylashishida tartib, amorf polimerlar tuzilishining modeli, klasterlar, kristall polimerlar ustkurtna strukturasi, polimer kristallari uziga xos xususiyatlari, kristallanish darajasi, molekulyar taxlanish koeffitsienti, kristallit, monokristalllar, lamellar, fibrillyar monokristall, fibrilla globulyar monokristallar, sferolitlar, utivchi zanjirlar.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlarni nadmolekulyar strukturasi deb nimaga aytiladi?
2. Nadmolekulyar struktura kanday omillarga bezlik? Nadmolekulyar struktura kanday jaraenlarni belgilab beradi?
3. Amorf polimerlarda tartibli joylashuv borligini kanday faktlar isbotlaydi?
4. Amorf polimerlarni tuzilishni kanday modellarini bilasiz?
5. Polimerlar kristalini tuzilishi kanday?
6. Polimer kristallarini xususiyatlari kanday?
7. Kristall polimerlarning nadmolekulyar strukturasi tavsiflab bering.
8. Domenlar qanday uchastkalar va u qaysi polimer uchun xos?
9. Polimerlarni kristallanish darajasi deganda nimani tushunasiz?
10. Polimerlarning kristall strukturalarining eng kup tarqalgan turlarini aytib bering.

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyar-nix soedineniy. M.: Ximiya, 1976, 437 s.
2. Oudian Dj. Osnovi ximii polimerov. M.: Mir, 1974, 614 s.

Ma'ruza 13

Yuqori molekulyar massali birikmalarning agregat va fazaviy holatlari

Polimerlarda fazaviy o'tishlar

Agregat va fazaviy xolatlar

Quyi molekulyar massali birikmalar 3 xil fazaviy xolatlarda bo'lishi mumkin: kristall, suyuq va gazsimon. Bu xolatlar molekulalarni bir-biriga nisbatan joylashish tartibi bilan farqlanadi.

Kristall fazaviy xolat kristall panjaraning mavjudligi va fazoda uning yo'nalishida polimerlar yoki atomlar joylashishida uzoq masofada tartib bilan xarakterlanadi.

Suyuq fazaviy xolatni ko'pincha amorf holat deyiladi. Bunga sabab unda kristall panjaraning yo'qligii va atom va molekulyar joylashishida yaqin masofada tartibning mavjudligidir. Amorf moddalar ham molekula yoki atomlarning zich joylashuvi bilan xarakterlanadi Ammo bu zichlik kristall jinslar zichligidan kichikdir. Polimeralar 2 xil fazaviy xolatda: kristall va amorf xolatlarda bo'ladilar.

Quyi molekulyar massali birikmalar 3 xil agregat xolatda bo'ladilar: gazsimon suyuq va qattiq. Bu xolatlar atom va molekulyar joylashish zichligida, xarakatlanish xarakterida va mexanik ta'sir natijasida uzini tutishi bilan farqlanadi. Qattiq agregat xolatga kristall va amorf fazaviy xolatlar mos tushadi. Qattiq amorf jismlar shishasimon jismlar deb ataladi. Polimerlarning suyuq agregat xolatiga qovushqoq oquvchan xolat deb ataladi.

Yuqori qaytar deformatsiya xarakterli bo'lgan polimerning holati yuqori elastik xolat deyiladi. Shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq, oquvchan xolatlar polimerlarning fizik xolatlari deyiladi. Suyuq polimerlarning qattiq shishasimon xolatga o'tish temperaturasi shishalanish temperaturasi deyiladi. Polimerda sezilarli

qovushkoq oquvchanlik deformatsiyasi uchraydigan temperatura okuvchanlik temperaturasi deyiladi.

Fazaviy utishlar Bir fazoviy holatdan 2-fazoviy holatga o'tishi fazaviy o'tishlar deyiladi. Bu o'tishlar molekulaning joylanishini o'zgarishi bilan va moddaning termodinamika xossalari uzgarishi bilan bog'liq. Birinchi va ikkinchi turdagi fazaviy utishlarni farklashadi.

Birinchi turdagi fazaviy utish ichki energiyani, xajmni, entropiyani o'zgarishi bilan sodir bo'lib unda issiqlik effekti kuzatiladi.

Ikkinchi turdagi fazaviy utish ichki energiyani, entalpiyani, xajmni va temperaturaning uzluksiz o'zgarishi bilan sodir bulib, issiqlik yutilmaydi ham, ajralib chiqmaydi ham. Ammo erkin energiyani bosim va temperatura buyicha 2-xosilalari sakrab o'zgaradi. Demak, moddaning issiklik sigimi, xajm kengayishining issiqlik koeffitsienti va izotermik siqiluvchanlik kabi xossalari sakrab o'zgaradi.

Kristallanish bu birinchi turdagi fazaviy o'tish bo'lib makromo-lekulalarning joylashish tartibini va ularni termodinamik xossala-rini uzgarishi bilan xarakterlarni, issiqlik effekti bilan sodir buladi. Shishalanish yuqori elastik holatdan shishasimon holatga o'tish bo'lib fazaviy o'tish emasdir.

Shishasimon x.olat va shishalanish

Shishasimon holat (qattiq agregat holat) makromolekulaning joylashish zichligining yukoriligi bilan xarakterlanadi. Ularning joylashish zichligi joylashish koeffitsienti bilan baholanadi.

Segmentlarning strukturaviy relaksatsiya vaqti quyidagi formuladan topiladi:

$$\tau^* = A \exp (U/kT)$$

$A=10^{-12}$ - konstanta, U - segmentlarning xfrakatlanishining aktivlanish energiyasi. K - Boltsman doimiysi; T – temperatura

Shunday kilib, temperaturaning kamayishi τ^* ni o'sishiga olib keladi. Bosim ortishi bilan U ni va τ^* ning ortishi kuzataladi.

Shishalanishning kinetik relaksatsion nazariyasi bu hodisani doimiy normal bosimda temperatura kamayishi yoki doimiy temperaturada bosim ortishi bilan relaksatsion hodisalarning sekinlashishi kabi talkin qiladi.

Erkin xajm nazariyasi

Bu nazariya asosida shishalanish jaraenida erkin xajm U_s ning kamayishi etadi. Jism sovitalganda namunada erkin xajm kamayishi sodir buladi.

Erkin xajm nazariyasida shishalanish temperatura sifatida sovitish jarayonida erkin xajmning malum bir uzgarmas qiymatini egallash temperaturasi kabul qilinadi

Shishalanish temperaturasi quyidagi nisbatda anikdanadi:

$$T_{\text{sh}} \Delta\beta = f_c; \quad T_{\text{sh}} \Delta\beta = V_c/V_T$$

$\Delta\beta = \beta_1 - \beta_2$; β_1 va β_2 - shishalanish temperaturasidan yuqoridagi (β_1) va pastdagi (β_2) xajmiy kengayishning issilik koeffitsienti.

$$f_c = \frac{V_c}{V_T}$$

f_c - geometrik erkin xajmning ulushi

Termodinamik nazariya

Bu nazariya shishalanishning sistemani konformatsion entropiyasi S ning kamayishi bilan boradigan utish deb qaraydi. Shishalanish sistemaning adnformatsion entropiyasini minimal qiymatida sodir bo'ladi. Bu qiymat kuyidagi nisbatdan topiladi:

$$\Delta S = \Delta C_p \ln (T_{\text{sh}}/T_2)$$

T_g - sistemaning konformatsion entropiyasi nolga teng buladigan temperatura. Odatda T_2 shshalanish temperaturasidan 50% ga kam buladi.

Shishalanishning molekulyar va molekulalararo ta'sirlanish natijasida tugunchalar dosil bo'lib, fluktuatsion tur xosil bulishi bilan xam boglashadi. Bu tur

x,osil bulishi uchun molekulyar va molekulalarga ta'sir energiyami issiklik xdrakati energiyasidan katta bulishi kerak.

Polimer faqat temperaturaning pasayishi va bosimning ortishi xlsobigagina emas, balki mexanik maydon ta'sirida xam shishasimon holatga utadi. Bu jarayon mexayik shishalanish deyiladi.

Mexanik ta'sir natijasida makromolekulani konformatsiyasini uzgartirish qobiliyati kuchning ta'sir qilish vaqti t_D va bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish uchun zarur bulgan vaqt t_n nisbati bilan belgilanadi. $t_n/t_d > 1$ polimer uzini biker sistema kabi tutadi va u konformatsiyasini uzgartira olmaydi. $t_n = \tau * U$, u holda mexanik shishalanish sharti $T^*/t_d > 1$ buladi.

Mexanik shishalanish natijasi polimer shishasimon holatga o'tish temperaturasi mexanik shishalanish temperaturari deyiladi.

Mexanik kuch ta'sir qilish tezligi juda kichik bulsa $T_{msh} = T_{sh}$, katta bulsa $T_{msh} > T_{sh}$ bo'ladi.

Tayanch suz va iboralar

Fazaviy xolat, amorf moddalar, polimerlar fazaviy xolati, aregat xolat, shishasimon jismlar, kovushkoq okuvchan xolat, elastik xolat, shishalanish temperaturasi, okuvchanlik temperaturasi, fazaviy utishlar, shishasimon xolat, shshalanish, nazariyalari, relaksatsion kinetik nazariya, erkin xajm nazariyasi, termodinamik nazariya, mexanik shishalanish

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlar qanday agregat xolatlarda bula oladi?
- 2 Polimerlar ketszday fazaviy xolatlarda bula oladi?
3. Polimerlarga kandy fizik xolatlar xos?
4. Birinchi va ikkinchi fazaviy utishlar nima?
5. Kristallanish va shishalanish fazaviy utishlarga kiradimi?
6. Shishalanish nima va shasimon xolat xususiyatlari kandy?
7. Shishalanishning relakeatsion kinetik nazariyasini baen kiling.

8. Shishalanishi erkin xaam nazariyasini baen kiling..
9. Shishalanishning termodinik nazariyasini baen kiling.
10. Mexanik shishalanish nimaga uni yuzaga kelish shartlari qanaka?

Foydalanish uchun adabiyotlar

Asosiylari


1. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F., Kashaeva V. N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
2. Askarov M.A., Ayxodjaev B.O., Alovitdinov A. B. Polimerlar kimyosi, Toshkent, Ukituvchi, 1988 i.

Kushimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M., Ximiya, 1976, 437 s.
2. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V. A. M.: Ximiya, 1985, 224 S.
3. Praktikum po ztsmii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F.. M., Ximiya, 1978.

bosqich boshida V nuktada kuchlanish biroz kamayib kamuna ingichkalashadi. Bu namunada buyincha xosil bo'lishiga olib keladi. Namunaning keyingi deformatsiyalanishi buyinchaning chuzilishi hisobiga ruy beradi. Buyincha butun namuna uzunligiga tarqalmaguncha chuziladi. Bunda buyincha kalinligi o'zgarmaydi.

3-bosqich. S nuqtada barcha namuna bo'yinchaga o'tib bo'ladi. Namuna buyincha shakhsitsa butun uzunligi buylab chuzila boshlaydi. D nuktada namuna uzgaradi. Bu bosqichda kuchlanish chuzilishga deyarli propoertsional uzgaradi.



2-bosqichda erishilgan deformatsiya namunadan kuch ta'siri olib tashlangandan keyin xam saklanib koladi, ammo bu deformatsiya chin plastik deformatsiya emas. Agar buyinchali namuna kdzdirilsa yoki buktirilsa. buyincha yuqolib namuna dastlabki

shaklini

tiklaydi. Bu 2-bosqichdagi deformatsiya yukori elastik deformatsiya ekanligidan dalolat beradi. Odatdagi yuqori elastik deformatsiyadan farkda u shishalanish temperaturasidan quyida kuzatiladi va uning namoyon bulishi uchun katta miqdorda kuch kerak. Bu xodisa majburiy (zo'raki) yuqori elastik deyilib kuzatilagan deformatsiya majburiy elastik deformatsiya (ϵ_v) deyiladi. Uni yuzaga keltirish kuchlanish esa majburiy yukori elastiklik chegarasi (τ_v) deyiladi.

Kuchlanish - deformatsiya egri chizigi keltirilgan shaklda 1-egri chiziq tula, 2-egri chiziq tula bulmagan deformatsiya egri chiziklaridir.

Buyincha hosil bo'lish yoki sovuk holda oqish mexanizmi 1-bosqidagi qayishqoq deformatsiyalanishda namunada erkin xajmning ortishi Bilan tushuntiriladi. Bunda kuchlanish ta'sirida makromolekulaning konformatsiyasining o'zgartirish imkonini oshirib, orientatsiyalangan holatga o'tishini ta'minlab beradi, ya'ni polimer yuqori elastik deformatsiyalanish qobiliyatini namoyon kiladi, Bu

jarayonga relaksatsion xodisa xarakterlidir. Relaksatsion hodisalar mavjudligi tufayli deformatsiyalanishda A nuqtadan keyin kuchlanish τ ning biroz kamayishi kuzatiladi

Namunaga kuchlanish ta'sir etishi atomlar, atomlar guruxlarining oddiy boglar atrofida aylanishining aktivlanish tusigining qiymatining kamayishiga olib keladi va sovuq holda oqish ehtimoligini oshiradi. Bu relaksatsion xodisalarni tezlashishiga ham olib keladi. Strukturaviy relaksatsiya vakgi τ^* va kuchlanish bilan belgilanadi.

$$\tau_i^* = B_i \exp \frac{U_0 - \sigma_i \alpha}{k T}$$

U_0 - atomlar xdrakatlanishining aktivlanish energiyasi;

α - konstanta kuchlanishning kichik kiymatlarida $\alpha\sigma \ll U_0$ va tenglama relaksatsiyani issiqlik harakatiga boglovchi


$$\tau^* = V \exp U_0 / (kT)$$

tenglamaga utadi.

Shishasimon holatda $U_0 \gg (kT)$ bo'lib τ^* ning qiymati yuqori buladi. σ ning katta qiymatlarida $(\alpha\sigma - U_0)$ bo'lib relaksatsiya vakti qisqarib makromolekula konformatsiyasini uzgartira oladi, ya'ni u yukori elastik deformatsiya namoyon kiladi.

Majburiy yuqori elastiklik chegarasi σ_v temperatura ortishi

bilan yoki deformatsiyalanish tezligining kamayishi bilan kamayadi. Bunda deformatsiyalanish darajasi ortadi. Kandaydir temperaturada σ_v nying qiymati polimerning murt buzilish kuchlanish qiymatiga mos tushib qoladi, ya'ni $\sigma_v = \sigma_{xr}$. Bu temperaturada murtlik temperaturasi (T_{xr}) deyiladi. Bu temperaturada deformatsiyalanish egri chizig'i tula bo'lmaydi (3 egri chizik;) va polimer yaxlitligi murt buziladi: A va D nuqtalar ustma-ust tushadi. Murtlik temperaturasi T_{xr} hamm shishalanish temperaturasi kabi nomuvozanat xarakteristikadir, U deformatsiya turiga siqilish, cho'zilish, siljish va kuchlanish tezligiga bog'liq. σ_v va σ_{xr} ning temperatura bog'liqligi kuyidagichadir:



Misol tariqasida PS va PMMA (T_{Sh} 373 K va 383 K mos ravishda) uchun shu boglanishlarni kurib chikaylik. Temperatura o'zgarishi bilan σ_{xr} ning kichik qiymati va σ_v nshg usish tezligining yuqoriligi sababli PS yuqoriroq T_{xr} ega va majburiy yuqori elastiklik intervali ($\Delta T_v = T_{sh} - T_{xr}$), PMMA dan kichikroq bo'ladi. Shu sababli PS zarbaga chidamsiz buladi.

Makromolekulalarning joylashish zichligining kamayishi, MM ning ortishi T_{xr} ni kamaytiradi. Makromolekulalar joylashish zichligining kamayishi erkin xajmni oshirib relaksatsiyani tezlshtiradi. Bu σ_v ning kamayishiga olib keladi. MM T_{sh} , σ_{xr} va T_{xr} larga ta'sir qiladi.

Shunday qilib shishasimon xolatda polimerlarning deformatsion xossalari qayishqoqlik moduli, majburiy yuqori elastiklik va uning temperaturaga bogliq holda o'zgarishi qayishqoq va majburiy elastiklik deformatsiyalar qiymati bilan xarakterlanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Deformatsioy xossalar, mexanik xossalar, deformatsiyalanish. kuchlanish-deformatsiya egri chizigi, amorf polimer deformatsiyalanish bosqichlari, buyincha, majburiy yuqori elastiklik, majburiy elastik deformatsiya, majburiy yuqori elastiklik chegarasi, buyincha xosil bo'lish sababi, deformatsiyalanishda relaksatsion xodisalar, mo'rt buzilish, mo'rt buzilish kuchlanishi, mo'rtlik temperaturasi

Kaytarish uchun savolshchr

1. Mexanik kuchlar ta'sir qilganda polimerlar uzini kanday tutadi?
2. Polimerii deformatsiyalanish kanday sodir buladi?
3. Amorf polimerlarni deformatsiyalanish xoli uchun kuchlanish-deformatsiya egri chizigi kanday kuryushga ega?
4. Amorf polimerlarni deformatsiyalanish mexanizmini baen kiling.
5. Majburiy yukori elastiklik deganda nimani tushunasiz?
6. Buyincha va buyincha xosil bulish sabablarini nimadan iborat?
7. Murtlik, murtlik temperaturasi, murt buzilish va uni temperaturaga boglikligi haqida tushuntirish bering.
8. Polimerii mexanik xossalari nimani xarakterlaydi?
9. Shishasimon polimer uchun kuchlanish-deformatsiya egri chizig'ini tushuntiring.
10. Shishasimon polgsherlar kuchlanish-deformatsiya egri chizig'i xar bir bosqichini tushuntirib bering.

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

Ma'ruza 15

KRISTALL POLIMERLARNING STRUKTURASI

Polimerlarning kristall zvenolarining va makromolekulalarining joylashishida uzoq masofada 3 ulchamli tartibga ega. Bunda kristall o'qlaridan bittasining yo'nalishi makromolekula yunalishi bilan mos tushadi. Shu sababli kristall polimerlarda zvenolarning joylashishda uzoq masofada tartib bo'lishi kerak, ya'ni uning makromolekulasi tartibli tuzilgan bulishi kerak. Kristallarda makromolekulalar joylashish zichligi maksimal bulishi kerak.

Kam tartibli amorf xshchatdan zanjirlari taxlangan kristall xshchatga utish makromolekula konformatsiyasining uzgarishini talab kdladi. Shuning uchun kristallanuvchi polimer ma'lum bir termodinamik va kinetik egiluvchanlikka ega bulishi kerak.

Kristallanish mexanizmi

Kristallanish ikki bosqichdan iborat: kristallanish markazining xosil bulishi, bu markazlarda kristallarning o'sishi. Kristallanish markazining xosil bulishi. Polimer suyuqlanmasida yoki eritmasida strukturaviy assotsiatlar hosil bulishiga yoki yo'qligiga olib keluvchi issiqlik fluktuatsiyasi mavjuddir.

Kristallanish markazi hosil bo'lishida erkin energiya uzgaradi. Bu uzgarish markazdagi molekulalarning umumiy miqdoriga boglik. Kristallanish markazining kritik ulchamiga n_{kr} erkin energiyaning maksimal qiymati to'g'ri keladi. n_{kr} da erkin energiyaning qiymati musbat bulib zarodishlar xdlı byokaror emas va zarodish o'sish zarodishning yuqolish ehtimolidan katta. Zarodish ulchamining ortishi bilan erkin energiya kiymati manfiylashadi, yani sistema erkin energiyasi kamayadi. Gomogen va geterogen kristall markazi hosil bulishini farklashadi, gomogen zarodish xosil bo'lishida barqaror kristallanish markazi hosil bo'lishi amorf fazada makromolekularning agregatsiyalanishidir. Bu zarodishlar hosil bulish tezligi kristallanish temperaturasi bilan belgilanadi. Zarodish hosil bo'lish tezligini temperaturaga boglikligi kuyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$\dot{N} = N_0 \exp \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi' (T_{n1}^0)^\alpha}{T_{kp} (\Delta T)^\alpha} \right]$$

$$\psi' = \frac{S \bar{\sigma}^{(\alpha+1)}}{K (\Delta H_{n1})^\alpha \rho_{kr}}$$

\dot{N} - xajm birligida vaqt birligida xosil bulgan zarodishlar soni;

N_0 - konstanta;

ΔE - erkin aktivlanish energiyasi;

T_{pl}^0 - kristallarni suyulish temperaturasi muvozanat qiymati;

$$\Delta T = T_{n1}^0 - T_{kp}$$


T_{kr} - kristallanish temperaturasi;

$\bar{\sigma}$ - fazalar chegarasi hosil bulish energiyasining o'rtacha qiymati;

ΔN - suyuklanishning solishtirma issiqligi

σ, α - koefitsientlar;

ρ_{kr} - kristall zichligi.



Tenglamadan kurinadiki kristallanish markazi xosil bulish tezligini temperturaga boglikligi maksimumga ega.

T_{pp} ga yaqin temperaturada barqaror zarodish hosil bo'lishi extimolli kam. Bunga sabab makromolekulalarning yuqori harakatchanligidir.

Shishalanish temperaturasi ga yaqin temperaturada ham

zarodish hosil bulish tezligi kichkina. Sababi sistemaning ichki energiyasi makromolekula konformatsiyasini uzgartirib zich joylashish amalga oshishiga etmaydi.

Geterogen kristallanish suyuq fazada polimer tabiatidan farqlanuvchi tabiatli qo'shimchalar yoki maxsus kushilgan moddalar sun'iy struktura hosil qiluvchilar borligi xisobiga hosil buladi. Bu xolda zarodish hosil bo'lish tezligi geterogen struktura xosil qiluvchilar yuzasida makromolekulalar adsorbtsiyasi bilan belgilanadi.

Kristallning usishi

Kristallanish jarayonida kristallanish markaziga makromolekula sigmentlarining birikishi sodir buladi. Kristallarning usish tezligini ifodalovchi tenglama quyidagichadir.

$$\dot{G} = \dot{G}_0 \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi'' (T_{pn})^k}{T (\Delta T)^\alpha} \right]$$

G_0 - konstanta;


G - krsitallarning usish tezligi;

Kristall usish tezligining temperaturasiga bogliqligi maksimumga ega bulib u T_{pp} tomonga siljigandir. Bu makromolekulalar harakatchanligining kristall usish tezligiga kuproq ta'sir qilishi bilan bogliq. Kristallar o'sishi bir, ikki va uch o'q bo'ylab sodir bo'ladi. Bunda mos ravishda qalamcha, disk va sferalar hosil buladi. Kristallarning usishi ikkita usuvchi kristall uchrashganda sodir bulib, butun massa birinchi fazoviy holat - kristall holatga utadi.

Kristaldanishning tezligi kristallanishning umumiy tezligi kristallanish markazining hosil bulishi va kristallar usish tezligi bilan belgilanadi va quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\dot{g} = \dot{g}_0 \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi (T_{pn})^\alpha}{T (\Delta T)^\alpha} \right]$$

Kristallanish tezligish temperaturaga bogliqligi maksimumga ega bulgan egri chizshchdir. Maksimumga tugri keluvchi temperaturada maksimal kristallanish



temperaturasi deyiladi. U polimerning strukturasi ga kuprok egiluvchanligiga boglik.

$T_{m.kr.1}$ K polimer 203 – 219

polisiloksan 218 tsis- 1,4-polibutadien

248 tsis-1,4-poliizopren.

Egiluvchanlik kamyishi bilan

$T_{m.pr}$ ortadi. Kristallanish tezligini

vaqtga boglikligi Avraami - Kolmogorov tenglamasi bilan ifodalanadi.


$$K_t = 1 - \exp(-k_k t^{n_k})$$

K_t - t vaqtdagi kristallanish darajasi;

k_k - kristallanish tezlik konstantasi;

n_k - konstanta zarodish xosil bulish va kristallar usishini xarakterlaydi. $n_k = 1-4$

Kristallanish izotermasi ikkita uchastkadan iborat: S - shaklidagi egri chiziq (AO) Avraami -Kolmogorov tenglamasi bilan ifodalanadi va AV uchastka, bu erda




vakt davomida kristallanish darajasi deyarli tugri chizik shaklida ortib boradi. OA birlamchi AV - ikkilamchi kristallanish t_0 -induksion davr bulib bu vakt da deyarli kristall fazaga aylanish bulmaydi.

Kristallanish sharoiti asosan kristall strukturaning morfolo-

giyasi deffektnostligini belgilaydi.

Kristallning suyuklanishi

Kristallizatsiya – suyuvi kam tartibli holatidan tartibli qattiq holatga o'tish – issiqlik ajralishi bilan boradi. Teskari jarayon suyuqlanish issiqlik yutilishi bilan sodir bulib u ham birinchi turdagi fazoviy o'tishdir. Suyuqlanish temperaturasi sifatida kristallarning suyuqlanishi sodir bulgan temperatura kabul kilingan.



Polimer kristallarning farkli tarafi ularni ng surukturasini polimorfligidir va u sovitilganlik darajasi kancha ko'p bulsa, shunga yuqori bo'ladi, Brchuz navbatida suyuqlanish temperaturasi T_{pl} va kristal lanish temperaturnoy T_{kr} urtasidagi bogliklik borligini kursatadi va suyuqlanishni temperatura oraligida sodir

bulishini keltirib chiqaradi. Yuqori va pastki egri chiziqlar kesishgan nuqta - T_{pl} - suyuqlanishni muvozanat temperaturasidir. Bu temperaturadan yuqorida kristallar mavjud bulmaydi.

Suyuqlanish temperaturasi kristall o'lchamlarga, uning defektligiga joylashish, zichligiga va boshqa faktorlarga bogliq. Masalan, laminar kristallarning suyuqlanishida birinchi navbatda buklanmalar oblasti suyuqlanib, lekin jarayon kristall ichkarisiga karab tarkaladi. Suyuqlanish muvozanat temperaturasi

$$T_{pl}^0 = \Delta N_{suyuq} / \Delta S_{suyuq}$$

ΔN_{suyuq} - suyuqlanish entalpiyasi;

ΔS_{suyuq} - suyuqlanish entropiyasi. Masalan:

	T_{pl}^0	ΔN_{suyuq} , kDj/mol	ΔS_{suyuq} , Dj/(mol)*K
PE	418	4,0	9,8
PP	445	10,9	24,3
PS	513	8,4	16.3
Butilkauchuk	272	12,7	46.7

Keltirilgan misolda kurinadiki, egiluvchan polimerning T_{pl}^0 si kichik buladi, ΔS_{suyuq} esa yukori buladi.

Turli faktorlarning krishchllanishga ta'siri

Kuchlanishning kristallanishga ta'siri

Ekspluatatsiya kilish jarayonida polimerlardan olingan buyumlar kuchlanish ta'sirida buladilar. Biz yuqorida ko'rib o'tgan kristallanish konuniyatlarini sistemaga kuchlanish tatsir qilmagan xol uchun topilgan. Kuchlanish kristallanish mexanizmini o'zgartirmaydi.

Kristallanish tezligi va kuchlanish o'rtasidagi bogliqlik kuyidagicha ifodalanadi.

$$t_{1/2} = t_{1/2}^0 \exp(-\sigma\beta)$$

$t_{1/2}$, $t_{1/2}^0$ - kuchlanish ta'sir qilayotgan va qilmayotgan hol uchun kristallanishning yarim davridir.

σ - kristallizatsiya sodir buladigan kuchlanishdir.


β - konstanta, polimer strukturasi bogliq.

Bu tenglamani logorifmlasak

$$\ln t_{1/2} = \ln t_{1/2}^0 - \beta\sigma$$

ya'ni $\ln t_{1/2}$ - σ urtasidagi bogliqlik tugri chiziq bo'ladi va to'g'ri burchak zichligidan "V" ning kiymatini topish mumkin.

Chuzilish deformatsiyasi natijasida chuzilgan zanjirlardan tashkil topgan kristallar ulushi tortib, taxlangan zanjirlardan (konformatsiyadagi) tuzilgan



kristallar ulushi kamayadi. Bu oldin chuzilgan polimerlar kristallanishda "Shish-kabob" tipidagi struktura yuzaga kelishiga sabab buladi.

Namunaga ta'sir kilayotgan kuchlanish uning suyuklanish temperaturasini ham oshiradi. Suyuqlanish temperaturasi T_{sq} ning kuchlanishga ta'siri kuyidagi formula bilan ifodalanadi

$$T_{cK} = T_{cK} \exp(a\sigma) \quad (*)$$

$T_{sq}^0 - \sigma = 0$ dagi T_{sq} ; a - konstanta bo'lib kuchlanishning T_{sq} ga ta'sirini kursatadi. Kristallarning suyuqlanish temperaturasi bosimga ham bog'lik va quyidagicha ifodalanadi:

Odatda bosim monokristallar olish uchun ishlatiladi. Elasto-merlarning kristallanishi amorf polimerlarni deformatsiyalanishi jaraenidayoq sodir buladi. Agar deformatsiyalanish $T_{kr} > T_{sk}$ sharoitda, ya'ni amorf holatga olib borilsa, chuzilish darajasi ortib borishi bilan T_{sq} usadi va deformatsiyaning qandaydir $E - E_{sq}$ da $T_{sq} = T_{kr}$.

(*) tenglamadan kuchlanishi $\sigma = \sigma_{sq}$, ya'ni chuzilishda kristallanish boshlanadigan kuchlanish qiymatini topish mumkin. Kristallanish boshlanadigan deformatsiya qiymati E_{sq} T_{sq} va a ortishi bilan kamayadi.

Chuzilishdagi kristallanish jarayoni noizotermikdir, chunki deformatsiyalanish darajasi ortishi bilan T_{sq} o'sadi. Bundan tashqari kristallanish jaraenida kristallarni orientatsiyalanishi bilan murakkablashadi.

Polimer strukturasshing kristallanishga ta'siri

Polimerning kimeviy tuzimshi, zanjir konfiguratsiyasi, mole-kulyar massasi kristallanish jarayoniga xususan kristallanish markazi hosil bulish va kristall usish, jarayonlari kinetikasiga ta'sir qiladi. Polimerning kogeziya energiyasini ortishi zarodish hosil bulish energiyasini kamaytirib, kristallar usish energiyasining ortishiga olib keladi. Ikkinchi faktor belgidovchi bulgani uchun umumiy kristallanish tezligi xam kamayadi.

O'rinbosarlar ta'siri ayniqsa vinil qatoridagi polimerlarda yaqqol ko'rinadi. PE kristallanish tezligi uning sovitish tezligiga deyarli tengdir. Shu sababli, masalan PE 410-414 K dan xona temperaturasigacha sovitish jaraenida u deyarli tula kristall xolatga o'tadi. Poliizobutilen esa bu sharoitda yukori elastik xolatda buladi va past temperaturalarda juda sekin kristallanadi. (248-233 K da $t_{1/2} = 30$ sutka).

Polimer MM usishi sistema kovuipfkligini oshiradi va bu sis-temani sovitish darajasini oshirish bilan barobardir. Shu sababli zarodish dosil bulish tezligi ortib kristallanish tezligi kamayadi. Kristallanish tezligini MM ga boglikdagi ekstremal xarakterga ega. Egiluvchan, zanjir tartibililigi yushchori bulgan polimerlar uchun MM ortishi bilan kristallanish tezligi ortadi. Sabab bunda qovushqoqlik ortishi zarodish hosil bulish energiyasini kamaytiradi. Polimer egiluvchanligining kamayishi bilan MM ortishi kristallanishning umumiy tezligini kamaytiradi.

Trans- polimerlar tsis- polimerlarga qaraganda tezroq kristallanadi va yuqoriroq suyuqlanish temperaturasi ga egadirlar. Tsis-1,4-poliizopren xona temperaturasi da juda sekin kristallanadi va yukori elastik material kabi deformatsiyalanadi. Trans-1,4-poliizopren shu sharoitda deyarli butkul kristallangandir. Polimerlarda anomal zvenolarning bulishi kristallanishni deyarli tormozlab qo'yadi. Strukturaviy va fazoviy tartibsizlik kristallanish tezligiga salbiy ta'sir qiladi. Tartibililik darajasi ortishi bilan zarodish hosil bo'lish tezligi kamayadi, chunki zarodishlarni kristall razmeriga o'sishi uchun sharoit bo'lmaydi. Chizikli polimerlar kristallanishning tezligi bilan xarakterlanadilar.

Tarmoqlanish va ayniqsa to'rsimon struktura kristallnish tezligiga turlicha ta'sir qiladilar.

Umumiy konuniyat shuki, polimerlarpagi istalgan tartibsizligi (anomal zvenolar, turlanish, tarmoklashchsh) kristallanish tezligiga bir xil ta'sir kiladi sovitish darajasi pastroq bo'lganda xosil bulishini tezlashtiradi va kristall usishini oekinlashtiradi. Sovitish darajasi yukori bulganda ikkala jaraenni sekiklashtiradi. Bu jarayonlarning xdr birini kristallanishning umumiy tezligiga ta'siri makromolekulani kinetik egiluvchanligiga bogliq kristallarni usish tezligi zanjir konfiguratsiyasiga ko'proq bog'liq. Shu sababli bu holda anomal zvenolarning tarmoqlovchi roli choklanishidan kuproq buladi.

Plastifikatorlar

Makromolekulyar egiluvchanligini oshirib fizik tur boglar sonini kamaytiruvchi va erkin xakjmn oshiruvchi plastifikatorlar o'ta

sovitish (pereoxlajdenie) kabi ta'sir kiladilar ya'ni zarodish hosil bulish tezligini kamaytiradilar va kristallar hosil bulish tezligini oshiradi. Kristallanishning umumiy tezligini plastifikator konsentratsiyasiga boglikdagi ekstremal xarakterga ega.

Tuldiruvchilar polimer tuldiruvchi sirt chegarasida kuchlanishni ortirib zorodish horil bo'lish tezligini oshiradi. Bunda mos ravishda kristallanishning umumny tezligi xam ortadi. Ayrim hollarda masalan, elastomerlarda aktiv tuldiruvchilar kristallanishni sekinlashtiradi. Bunga sabab ulj ishtirokida kristallar o'sish tezligining kamayishidir.

Tayanch so'z va iboralar

polimerning kristalli xususiyatlari, kristall xolatga o'tish xususiyatlari, kristallanish mexanizm, kristallanish markazi, xosil bulishi, kristall usishi, kristallanish tezligi, maksimal kristallanish temperaturasi, kristall suyuklanishi, struktura polimorfligi, suyuklanish temperaturasini kristallanish temperaturasiga boglikligi, suyuklanish muvozanat temperaturasi, kristallanishga, ta'sir kiluvchi faktorlar: kuchlanish, polimer strukturasi, plastifikatorlar, tuldiruvchilar.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlarni kristallarini tavsiflab bering.
2. Polimerlarni kristallanish mexanizmi nimadan iborat?
3. Kristallanish markazini xosil bulishini tushuntirib bering.
4. Kristallni usish boskichi kanday utadi?
5. Kristallanish tezligi kanday omillarga boglik?
6. Koistallni suyuklanishi kanday omillarga boglik?
7. Kristallanishga kuchlanish kanday ta'sir kiladi?
8. Kristallanishga polimer strukturasi kanday ta'sir kiladi?
9. Polimer strukturasi (kimyoviy tuzilishi, molekulyar massasi) kristallanishga qanday ta'sir kursatadi?
10. Polimerni suyuklanish xarorati kristallanishga qanday ta'sir kursatadi?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.


Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

Ma'ruza 16

POLIMERLARNING DEFORMATSION XUSUSIYATLARI VA MEXIN

MUSTAHKAMLIGI




Kristall polimerlar kristall va amorf uchastkalardan tashkil topgandir. Kristall uchastkalar qayishqoq qattiq jismlar kabi deformatsiya lanadi. Amorf uchastkalar sharoitiga karab (temperatura va tezlik) shishasimon ($T < T_{sh}$), yuqori elastik ($T_{sh} < T < T_0$) yoki qovushqoq oquvchan ($T > T_0$) materiallar kabi deformatsiyalanadi. Kristall polimerlar amorf poimerlarga nisbatan yuqoriroq; qovushqoqlik moduliga, kamroq beriluvchanlik (podatlivost) va kamroq tiklanuvchanlik (vosstanavlivaemost) ga egadirlar. Ammo biki kristall va "beriluvchan" amorf uchastkalarining jamlanishi kristall polimerlarni amorf poimerlarga nisbatan kamroq murtlik namoyon kilish imkonini beradi. Kristall poimerlar deformatsiyalanish egri chizigi tashqi ko'rinishi buyicha shshasimon polimerlarnikiga uxshab ketadi. Unda 3 ta uchastkani ajratish mumkin. 1-boskichda qayishqoq deformatsiya rivojlanadi va u namunadagi erkin xajmni oshradi. Kristallanish darajasi qancha yuqori bulsa, qayishqoqlik moduli shuncha katta buladi. Bu boskichda dastlabki kristall struktura buziladi. 2-boskichda kristall struktura qaytadan quriladi va kuchlanish ta'sirida yangi struktura hosil bo'ladi. Bu jarayon rekristallanish deyiladi. Namuna ma'lum bir joyda ingichkalanib "buyincha" hosil buladi. Buyincha hosil bulish kuzatilgan kuchlanish okuvchanlik chegarasi (σ_T) deyiladi. 3-uchastka boshiga kelib barcha materiallar buyinchaga o'tadi va shu paytdan boshlab bo'yincha deformatsiyalanadi. Kristall va amorf polimerlarda buyincha xosil bo'lish mexanizmi turlichadir. 3-bosqichga kelib kristall morfologiyasi o'zgaradi: dastlabki (ko'proq sferolidan) fibrillyar strukturaga o'tiladi. Egri chiziq shakli polimerlarning kristallanish darajasiga va jarayonida olib borish sharoitiga bogliq. Strukturani qayta ishlanishi relaksatsion xarakterga ega.

Egiluvchan chegarasi deformatsiya tezligi ortadi va temperatura kamayishi bilan ortadi.

AMORF POLIMERLARNING UCH FIZIKAVIY XOLATI.

Amorf polimerlar uchun temperaturaga qarab uch fizik xolat xosdir: shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq oquvchan. Fizik xolatlarni mavjudligining temperatura soxasini aniklash uchun termomexanik analiz usuli qo'llaniladi. Polimerni deformatsiyalanishini temperaturaga bog'liqlik egri chizig'i termomexanika egri chizigi deb ataladi.



Polimerii bir fizik xolatdan boshkasiga utishiga mos keluvchi ikkita temperatura soxasi mavjuddir. Mos holda shishasimon xolatdan yukori elastik xolatga utish - shishalanish temperaturasi va kovushkok okuvchan xolatga o'tish temperaturasi - oquvchanlik temperaturasi deyiladi.

Yukori elastik xolat. Bu xolat uchun katta qaytar deformatsiya-larning mavjudligi eeng xarakterli belgidir. Yukori elastik deformatsiyasining tabiatini aniqlash uchun ideal kauchukning deformatsiyalanishini ko'rib chiqaylik. Ideal kauchukning deformatsiyalanishida xajm o'zgarmaydi, ya'ni $V = \text{const}$, $T = \text{sonst}$. Bu xol uchun erkin energiyaning o'zgarishi kuyidagiga teng:

$$dF = dU - TdS$$

Bu erda dU - ichki energiya; T - absolyut temperatura; dS - entropiya.

Kauchuk chuzilganda $dA = dF = f dl$ (f - ta'sir kuchi; dl - deformatsiya) ga teng mexanik ish bajariladi.

$$f dl = dU - T dS$$

$$f = \left(\frac{dU}{dl} \right)_{T, V} - T \left(\frac{dS}{dl} \right)_{T, S}$$

V

Tenglamadan kurinadiki, ichki energiyani va entropiyani uzgarishi bilan boglik kayishkok kuch mavjud. Ideal kauchuk deformatsiyalanganda xajm uzgarmasligi sababli tenglamaning birinchi xadi nolga aylanadi yukori elastik deformatsiyalanishdagi kayishkok kuch

$$f = - T \frac{dS}{dl}$$

teng buladi, ya'ni yukori elastik deformatsiyalanish entropiyaviy xarakterga ega degan xulosa chikadi.

Shishasimon xolat. Bu amorf polimerlarni qattiq xolatidir. Polimerlarni yukori elastik xolatidan shishashmon xolatiga o'tishi temperaturani pasayishi yoki bosimni ortishi xisobiga sodir buladi. Bu jarayon shishalanish deb ataladi. Shishalanishda issiqlik sig'imini, xajmiy kengayishni temperatura koeffitsienti, termik siqilishning termik koeffitsienti sakrash bilan o'zgaradi. Shishalanish fazaviy o'tish emas. Shishiasimon xolatga utishning sababi temperatura shishalanish temperaturasiga teng bulganda segmentlar uz xarakatchanligini yo'qotishidir. Bunda xarakatchanlikni yukotilishiga molekulalararo ta'sirning ortishi ham sababchi bo'ladi.

Qovushqoq okuvchan xolat. Oqish temperaturasidan yuqori temperaturada polimer oqishga, ya'ni qaytmas deformatsiyalanishga uchraydi. Oqish jaraenida segmentlarni xarakat yo'nalishda siljishi kuzatiladi. Bu makromolekulalarni ham xarakatiga sababchi buladi.

Segmentlar harakatlanishi uchun ikkita shart bajarilishi kerak: molekulararo ta'sirni engishga etadigan issiqlik energiyasi va segmentlarni siljishi uchun vakant joylarni kovaklarni mavjudligidir. Molekulyar massa qiymati kritik qiymatdan (ya'ni fluktuatsion tur xosil kila oladigan) yukori bulgan polimerlar suyuklanmalari elastik xossalarni, ya'ni katta kaytar deformatsiyalanishni namoyon kiladi. Suyuklanma qovushqoqligi ta'sir kilaetgan bosimga boglik buladi.

Tayanch suz va iboralar

